

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
O'ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI



O`zbek tilshunosligi tarixi fanidan

MA`RUZALAR MATNI

NavDPI O`zbek tilshunosligi kafedrasi o`qituvchisi

Gadoyeva Dildora Baxtiyorovna



2012-2013 o`quv yili

Mazkur ma`ruzalar matni O`zbekiston Respublikasi Oliy va O`rta maxsus ta`lim vazirligining 263-sonli buyrug`I bilan 2008-yil 23-avgustda tasdiqlangan va BD-5141100-4.04 raqam bilan qayd qilingan namunaviy dastur asosida tuzildi hamda pedagogika institutlarining 5141100 – O`zbek tili va adabiyoti ta`lim yo`nalishi 4-kurs talabalari uchun mo`ljallandi.

O`zbek tilshunosligii tarixi fani bakalavriat bosqichining o`zbek tili va adabiyoti yo`nalishi o`quv rejasidan o`rin olgan asosiy fanlardan biridir. Mazkur ma`ruzalar to`plamida shu kurs bo`yicha tuzilgan dasturning barcha masalalari qamrab olingan. Unda adabiy til, uning paydo bo`lishi, manbalari, adabiy tilga ijtimoiy-tarixiy voqealarning ta`siri, tayanch dialekti, adabiy tilning taraqqiyotida mashhur so`z ustalarining tutgan o`rni, adabiy til uslublari hamda adabiy tilni yaratish bo`yicha turli xildagi munozaralar aks ettirilgan.

Ushbu ma`ruzalar to`plami darslik, qo`llanma va ilmiy-metodik manbalar asosida tayyorlandi.

Tuzuvchi: NavDPI O`zbek tilshunosligi kafedrasida o`qituvchisi
Gadoyeva Dildora Baxtiyorovna

Taqrizchilar: NavDPI O`zbek tilshunosligi kafedrasida professori,
f.f.d. Murodva Nigora Quliyevna

NavDPI O`zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti,
f.f.n. Nuritdinova Ra`no Sevdievna

Ushbu ma`ruzalar to`plami NDPI O`zbek filologiyasi fakulteti Ilmiy kengashining 2012-yil 29 avgustdagi 1-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

1 – MAVZU

Kirish. O'zbek tilshunosligi tarixi kursning maqsad va vazifalari.
Xalifalik davrida tilshunoslik.

Reja:

1. O'zbek tilining turkiy tillar orasida tutgan o'rni.
2. Kursning maqsad va vazifalari.
3. "O'zbek tilshunosligi tarixi" kursining boshqa fanlar bilan aloqasi.
4. O'zbek tilshunosligi tarixining davrlarga bo'linishi.
5. Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhong Beruniy va Abu Ali Ibn Sinoning lingvistik qarashlari.

Dunyodagi burcha tillar eng asosiy, eng muhim belgilari nazarda tutilgan holda bir necha guruhlariga bo'linadi. Tilshunoslikka oid adabiyotlarda ma'lumot berilishicha, yer yuzida uch mingdan ortiqroq til bor. Bu tillarning shevalari ham hisobga olinganda ularning soni besh mingdan ortadi. Tilshunoslar tillarni tasniflashda ikki usuldan foydalanadilar: morfologik usul va geneologik usul. Tillarni morfologik usul asosida tasnif qilishda so'zlarning tuzilishi eng asosiy belgi qilib olinadi. Shu asosda tillar ikkiga bo'linadi: qo'shimchali tillar va qo'shimchasiz tillar. Qo'shimchali tillar yana ikki guruhga bo'linadi: agglyutinativ tillar va flektiv tillar.

Geneologik tasnif tillarning bir manbadan kelib chiqishini, qaysi tillar bir-biri bilan qardosh ekanligini, shu bilan birga, so'zlarni, qo'shimchalarni va boshqa grammatik xususiyatlarni nazarda tutib tillarni ayrim guruhlariga ajratadi. Geneologik tasnifda guruhlariga ajratilgan tillarning kelib chiqishi, so'zlarning paydo bo'lishi, ulardagi tovushlar va affikslar o'xshashligi hisobga olinadi. Grammatik tuzilishi va boshqa xususiyatlari bilan bir-birlariga yaqin bo'lgan tillar guruhi, til oilasi deb ataladi.

Hozirgi vaqtda tarixi o'rganilib, bir-biri bilan qardosh ekanligi aniqlangan til oilalaridan biri turkiy tillar oilasidir. Hozirda turkiy tillar oilasiga yigirmadan ortiq tillar kiradi: qirg'iz, qozoq, turk (usmonli turk), turkman, o'zbek, uyg'ur, tatar, chuvash, ozarbayjon, yoqut, qoraqalpoq, tuva, balqar... Bu tillar kelib chiqishining umumiyliigi, fonetik, leksik-semantik, grammatik xususiyatlarining umumiyliigi bilan xarakterlanadi. Turkiy tillar oilasiga mansub tillar uchun asos bo'lgan til qadimgi turkiy tildir. Turkiy tillar, ularning umumiy va o'ziga xos jihatlarni «Turkiy filologiyaga kirish» kursi o'rganadi.

"O'zbek tilshunosligi tarixi" kursi fan tarixini o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. O'zbek tilshunosligi fan sifatida qachondan boshlab shakllangani, bu fanning shakllanishi va rivojlanishiga hissa qo'shgan olimlar, tilshunoslikka bag'ishlangan asarlar haqida bahs yuritish kursning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Tilshunoslik fani – lingvistika hozirgi darajaga yetkuncha uzoq tarixiy rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Tilning xususiyatlari, uning tarixiy taraqqiyoti, so'zlarning qanday paydo bo'lganligi, umuman, tilshunoslik masalalari faylasuflarni juda qadimdan qiziqtirib kelgan. Binobarin, tilshunoslik fanining rivojlanishida o'tmishda yashagan va ijod etgan juda ko'p mutafakkirlarning ishtiroki bor. Ularning

faoliyati tufayli fanga qo'shilgan ilmiy merosni e'tibor bilan o'rganish lozim. Buning kamida ikki ahamiyati bor. Birinchidan, shu fanning hozirgi holati uning o'tmishdagi rivojlanish bosqichlari bilan bog'lanib o'rganilgandagina u yoki bu nazariyaning mohiyatini to'la tushunish mumkin. Ikkinchidan, fan tarixini bilish turli olimlar tomonidan ilgari surilgan nazariya va fikrlarni to'g'ri baholab yo'l qo'yilishi ehtimol bo'lgan xatolarni takrorlanmaslik uchun yordam beradi.

Til haqidagi fan – tilshunoslik Yevropada XIX asrning boshlaridan boshlab mustaqil fan sifatida tan olindi. Ammo odamlarning til strukturasi bilan qiziqishlari ancha ilgari boshlangan. Qadimgi davrlarda tilga oid masalalar, odatda, boshqa masalalar bilan: falsafa, musiqa, eski yodnomalarni o'qish, hatto tabiiy fanlar bilan birga qo'shib ketgan edi. Ajdodlarimiz bundan bir necha ming yillar oldin yozuv madaniyatiga ega bo'lganlar. Yurtimizdan dunyo fani va madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan buyuk allomalar yetishib chiqqan. VIII-IX asrlardayoq fanlar akademiyasi "Baytul hikmat", keyinchalik 1010-yilda Ma'mun akademiyasi tashkil topgan. Bu yerlarda dunyo olimlarini lol qoldirgan kashfiyotlar qilingan. Al Beruniy, al Xorazmiy, Ibn Sino, al Farg'oniy kabi olimlar mana shu akademiyalarda faoliyat yuritganlar.

Sohibqiron Amur Temur davrida fan va madaniyat rivojlandi. Mirzo Ulug'bek rasadxonasida olamshumul kashfiyotlar qilindi. Xusayn Boyqaro saroyida ham ilm-fan rivoji uchun shart-sharoitlar yaratildi. Ana shunday boy madaniy merosga ega bo'lgan rus bosqini davrida o'z tarixidan uzilib qoldi. Ayniqsa, asrlar davomida foydalanib kelingan yozuvdan kirill alifbosiga o'tkazilishi xalqimizni ajdodlari qoldirgan yozma yodgorliklardan bebahra qilib qo'ydi.

Nihoyat istiqlol tufayli o'timish madaniyatimizga, boy madaniy merosimizga xolis baho berish imkoniyatiga ega bo'ldik. Shu vaqiga qadar yurtimizdan yetishib chiqqan tilshunos olimlarning ilmiy merosi yetarli baholanmadi. Tilshunoslikning nazariy masalalari Yevropa olimlari nomlari bilan bog'lab o'rganildi. Oliy o'quv yurtlarida "Tilshunoslik tarixi" kursida ham asosan Yevropa va rus tilshunoslari faoliyatlari o'rganildi. Istiqlol tufayli oliy o'quv yurtlariga «O'zbek tilshunosligi tarixi» kursi kiritildi. Ajdodlarimiz qoldirgan lingvistik merosni o'rganish, o'zbek tilshunoslarining jahon tilshunosligi rivojiga qo'shgan hissasini ko'rsatib berish kursning asosiy vazifalaridandir.

"O'zbek tilshunosligi tarixi" fani tilshunoslik tizimidagi barcha fanlar bilan aloqador. "Turkiy filologiyaga kirish», "O'zbek adabiy tili tarixi", "O'zbek tilining tarixiy-qiyosiy grammatikasi", "Qadimgi turkiy til", "Tilshunoslik nazariyasi", "Hozirgi o'zbek adabiy tili" fanlarining ta'sirisiz "O'zbek tilshunosligi tarixi" kursini tasavvur etish qiyin.

"O'zbek adabiy tili tarixi" o'zbek tilining tarixiy taraqqiyotini, o'zbek tilini davrlashtirish masalasini o'zbek adabiy tilini shakllanishiga hissa qo'shgan badiiy asarlar tilini o'rganadi.

"O'zbek tilining tarixiy grammatikasi" fanida grammatik shakllarning tarixiy taraqqiyoti yuzasidan bahs yuritiladi.

"Qadimgi turkiy til" turkiy tillarning tarixiy ildizini, tarixiy holatini o'rganadi.

Shunga qaramay, yuqoridagi hamma fanlar ijtimoiy vosita bo'lgan tilni tekshirishi jihatidan bir-biri bilan aloqadordir. Ular bir-birini to'ldiradi.

Bundan tashqari, “O‘zbek tilshunosligi tarixi” kursi boshqa fanlar bilan ham o‘zaro bog‘liqdir. Jumladan, “Tarix”, “Falsafa”, “Mantiq”, “Adabiyotshunoslik” kabi. O‘zbek tilshunosligi tarixi quyidagicha davrlarga ajratilgan.

1. Xalifalik davrida tilshunoslik.
2. Qoraxoniylar davrida tilshunoslik.
3. Mo‘g‘ullar istilosi davrida tilshunoslik.
4. Temuriylar davrida tilshunoslik.
5. Xonliklar davrida tilshunoslik.
6. Chorizm va sho‘rolar davrida tilshunoslik.
7. Mustaqillik davrida tilshunoslik.

Abu Nasr Forobiy o‘rta asrda yetishgan Sharqning eng yirik mutafakkirlaridan biri.

Forobiy falsafa tarixida yirik mantiqshunos, faylasuf sifatida mashhur. U fanning barcha sohalarida qalam tebratgan va bu sohalarning har birida ajoyib asarlar yaratgan. Uning tarjimai holi haqida arab olimlaridan biri Ibn Abu Usaybia (1203-1270 yy.) o‘zining «Tabiblar darajasini belgilash uchun xabarlar chashmasi» nomli asarida qimmatli ma‘lumotlar bergan. Forobiyning to‘la ismi Abu Nasr Muhammad ibn O‘zlug‘ ibn Tarxon bo‘lib, u 873 yilda O‘rta Osiyoning qadimiy shaharlaridan bo‘lgan Forob (O‘ror)da tug‘iladi. Toshkentdan 200-260 km shimoliy-g‘arbda joylashgan. Hozir territoriya jihatidan Qozog‘istonga kiradi. U o‘z taxallusini ham foroblik- Forobiy deb shu joy nomiga nisbatan olgan.

Ibn Abu Usaybia shunday yozadi: “... U riyoziy ilmlarga mohir, o‘zi pokiza, yirik alloma, mol-dunyo bilan ishi yo‘q, xoksor odam edi. U “olmas ovqatga”ga chidab turadigan serqanoat odam edi, uning fe‘l-atvori huddi qadimgi faylasuflar odobiga o‘xshardi”.

Forobiy mantiq sohasida ko‘p ishlar qilgan. Ibn al-Qiftiyning ma‘lumotiga ko‘ra Forobiy «Mantiqqa oid kitoblarni tadqiq qilish va sharhlashda zo‘r muvaffaqiyatlarga erishgan. Mantiqni o‘qish va o‘qitish usullari qiyin bo‘lgan. Shu maqsadda mantiqning qiyin joylarini oydinlashtirgan, ko‘pchilikka noma‘lum bo‘lgan yashirin sirlarni ochgan va undan foydalanishni osonlashtirgan. Bu haqda al-Qiftiy shunday yozadi: “Forobiy o‘z asarlarida mantiqdan foydalanish uchun tushunarli iboralar, nozik ishoralar qo‘llaydi, hatto, boshqa olimlar yo‘l qo‘ygan beparvoliklarni ham ko‘rsatib o‘tdi. Shuning uchun ham uni Sharqda “Mullimussoniy” ya‘ni, ikkinchi muallim deb atashdi”.

Tilshunoslikning falsafiy masalalari ichida markaziy o‘rinni egallagan bilishning 2 bosqichi (hissi va idrokiy) umumiylik-xususiylik, mohiyat-hodisa dialektikasi haqida o‘zining “Falsafatu Aristutolis” asarida ma‘lumot beradi. Uning ta‘kidlashicha, faqat insongina bilishga intiladi. Inson o‘zini o‘rab turgan olamni va o‘zini o‘zi bilish orqali yetuk mavjudotga aylanadi. Bilish insonning mohiyati. Bilishdan maqsad haqiqatga erishishdir, - deydi. Har qanday bilish, avvalo, o‘zining o‘rab turgan olamdagi narsa va hodisalarni kuzatishdan boshlanadi. Chunki tafakkur faoliyati bilan hosil qilingan mohiyat o‘zining tabiiy asosidan oldin bo‘lishi mumkin emas¹. Bu fikrlar V.Gumboldt asarlarida ham uchramiz, biroq V.Gumboltdan 900 yil avval aytilgan fikrlardir.

¹ Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligi tarixi. –T., O‘zbekiston, 2002. 8-bet.

Forobiy inson ongining ikki turli bo'lishini ko'rsatadi: 1) ichki (intuitiv) ong; 2) tashqi (hosil qilingan) ong. Uning fikricha, birinchisi tabiat tomonidan beriladi. Ikkinchisi esa tabiatdan maqsadga ko'ra olinadi. Shu jihatdan Forobiy inson bilimni ikkiga bo'ladi: 1) tug'ma; 2) o'qish va tajriba asosida erishilgan bilim.

Yangi tug'ilgan bolada bilish imkoniyati, bilish ruhi mavjud. U tug'ma, shu bilan birga inson sezgi a'zolari bilan ana shu imkoniyatni yuzaga chiqaradi. Atrof-muhitni bilib boradi. Nom va tushunchalar sezgi a'zolarimiz mahsulidir. U avloddan-avlodga beriladi. Shuning uchun ular tug'ma emas, balki qabul qilingan bilimlardir ¹.

Forobiyning tilshunoslik haqidagi fikrlari «Fanlar tasnifi haqida» nomli asarida o'z aksini topgan. Asarning birinchi bo'limi til haqidagi fanga bag'ishlangan.

Forobiy tilshunoslikning mundarijasi haqida ham fikr yuritadi va u olti bo'limdan iborat ekanligini ko'rsatadi. Ular quyidagilar: 1) sodda so'z haqidagi fan; 2) so'z birikmalari haqidagi fan; 3) sodda so'z qonunlari haqidagi fan; 4) so'z birikmalari qonunlari haqidagi fan; 5) yozuv qonunlari va to'g'ri talaffuz (orfoepiya) haqidagi fan; 6) she'r tuzilishi qoidalari haqidagi fan.

Forobiy har bir bo'limda nimalar o'rganilishi haqida ma'lumot beriladi. Bu ma'lumotlardan ko'rinadiki, mullif hozirgi tilshunoslik bo'limlari: fonetika, leksika, morfologiya, sintaksis, orfografiya, orfoepiya, stilistika haqida, ularning o'rganish ob'ektlari haqidagi ilk tushunchalarni X asrdayoq ko'rsatib bergann ekan. Shuningdek, grammatika bilan mantiqning o'zaro bog'liqligi, tildagi umumiy va xususiylik dialektikasi haqida ham ma'lumotlar beradi.

Anglash mumkinki, Forobiy mashhur faylasuf bo'lish bilan birga, tilshunoslikning umumiy masalalarini, uning mundarijasini yoritib bergan tilshunos olim hamdir.

Abu Rayhon Beruniy. Xalifalik davrida yashab ijod etgan yana bir qomusiy olimlardan biri Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al Beruniydir.

U ko'p tillarni biluvchi poliglot olimdir. Beruniy o'z davridagi barcha fan sohalari bo'yicha qalam tebratib, 150 dan ortiq asar qoldirdi. Uning «Xronologiya», «Hindiston», «Geodeziya», «Mineralogiya», «Mas'ud qonuni» hamda «Saydana» nomi bilan mashhur bo'lgan «Kitob as-saydana fi-t-tibb» asarlari tadqiqotchilar tomonidan maxsus o'rganilgan va arab, rus, ingliz, nemis va boshqa tillarga tarjima qilinib, nashr etilgan. Beruniyning tilshunoslikka oid qarashlari «Saydana» asarida o'z aksini topgan. Mahmud G'aznaviyning vorisi Ma'dud sultonligi davrida 1048 yilda yozilgan mazkur asar dorivor o'simliklar, hayvonlar va ma'danlar (arabcha so'z - 1. Kon, yer osti boyliklari; 2. Har bir narsaning asl joyi) tavsifiga bag'ishlangan.

Asarning kirish qismida Beruniyning bolalik davrida borliqni va uning qismlar turli tillarda qanday nomlanishini bilishga intilganligi haqida so'z yuritadi. Asarda aytilishicha, bo'lg'usi olimning bolaligida uning yurtiga bir yunon ko'chib kelgan. Abu Rayhon u kishidan don, urug', meva, o'simlik va boshqa narsalarning yunon tilida qanday nomlanishini so'rab olib, o'z daftariga yozib borgan.

«Saydana» asari 29 bob va 1116 maqoladan iborat. Har bir maqolada dorivor moddalarning nomi izohlanadi. Har bir bob bir harfga bag'ishlangan. Arab alifbosidagi 28 harfga lom-alifni ham qo'shib, alohida bob tarzida beradi. Beruniy

¹ Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. –T., O'zbekiston, 2002. 111-bet.

asarda 4500 dan ortiq arabcha, forsha, yunoncha, suriyacha, forsha, xorazmiycha, sug`dcha, turkcha va boshqa tillardagi o`simlik, hayvon, minerallar va ulardan tayyorlanadigan dorivorlar nomlarini to`playdi va izohlaydi. Natijada “Saydana” asari dorivor moddalar lug`atiga aylandi.

“Saydana” asarining ahamiyatli tomoni shundaki, unda dorivor moddalarning bir necha tillardagi nomlari berilgan. Hatto bir o`simlikning nomi bir necha tilda nomlanishi bilan birga bir tilning turli dialektal variantlarda qanday nomlanishini ham bayon qilingan.

Azaldan ko`p dindor kishilar arab yozuvi Oloh tomonidan berilgan ilohiy narsa deb qarashgan. Uni o`zgartirib bo`lmaydi, chunki u Olohning kalomidir, - deydi. Beruniy esa har qanday yozuvlar qatori arab yozuvi ham insoniyatning kashfiyoti ekanligini ta`kidlaydi. Bu yozuvda unli fonemalarning ifodalanmasligi, ko`p harflarning o`xshashligi, ularning ayrimlari nutqda farqlanishi bir qancha qiyinchiliklar keltirib chiqarashini aytadi. Ayniqsa, tarjimada bu hol yaqqol ko`rinadi. Agar nuqtalar tushib qolsa, ma`noning chiqmasligi yunon olimlarining ismi shariflarini to`liq va to`g`ri ifodalab bo`lmasligini ta`kidlaydi. Shuning uchun yunon familiyalarini asliga solishtirgan holda transkripsiya qiladi. Shuningdek, hindcha so`zlarni berishda bir qancha hind fonemalarining arab tili fonetikasida yo`q ekanligini, shu sababli arab yozuvi orqali bu so`zlarni to`g`ri ifodalab bo`lmasligini aytib, u arab yozuviga fors tilidan foydalangan holda to`rtta (p, ch, j, g) harf qo`shadi.

“Saydana” asari bir vaqtning o`zida ham izohli, ham tarjima, ham etimologik, ham dialektologik lug`atning ilk namunasi.

Xullas, Beruniy “Saydana” asarida dunyo tillari, ularning farqli xususiyatlari, leksikografiya, etimologiya, grammatika masalalari bo`yicha o`zining ma`lum qarashlarini ifodaladi va bu bilan tilshunoslik fanining shakllanishiga ma`lum darajada o`z hissasini qo`shdi.

Xalifalik davrida yashab ijod qilgan qomusiy olimlardan yana biri Abu Ali Ibn Sinodir (979-1037)

Ibn Sino 57 yil umr ko`rdi. U mana shu qisqa umri davomida 400 dan ortiq asarlar yozdi. Uning yozgan asarlari ilm-fanning barcha sohalariga tegishli. 400 dan ortiq asardan 242 tasi bizgacha yetib kelgan. 80 tasi falsafa, ilohiyot, tasavvufga, 43 tasi tabobat, 19 tasi mantiq, 26 tasi esa ruhshunoslikka bag`ishlangan. O`sha davrdagi fanlardan birortasi ibn Sino e`tiboridan chetda qolgan emas.

Ibn Sino o`z asarlari bilan turkiy xalqlar madaniyatini dunyo madaniyatining oldingi qatoriga olib chiqdi. Shuning uchun ham uni “*Shayxur-ra'is*” olimlar boshlig`i deb atashgan. Uning aynan tilshunoslikka doir asari «Asbobi xudut al-huruf» (“Fonetika haqida risola”) asari 1024 yilda yozilgan. Asar arab tili fonetikasiga bag`ishlangan. Mazkur asar kirish va 6 bobdan iborat. Asar Abu Mansur Muhammad ibn Ali ibn Umar sharafiga yozilgan. “Asbob” asari kirish, 6 bobdan iborat. Kirish qismida uning yozilish sabablari, kimning sharafiga yozilganligi haqida so`z yuritiladi. Bu risola 6 bobga ajratilgan. Bular quyidagilar:

1. *Tovushning paydo bo`lish sabablari haqida.*

2. *Nutq tovushlarining paydo bo`lish sabablari haqida.*

3. *Bo`g`iz va tilning anatomiyasi.*

4. *Ayrim arab tovushlarining paydo bo`lishidagi o`ziga xos xususiyatlari to`g`risida.*

5. *Bu tovushlarga o'xshash nutq tovushlari haqida.*

6. *Bu tovushlarning nutqiy bo'lmagan harakatlarda eshitilishi.*

Asarning birinchi bobida tovushning paydo bo'lishi haqida so'z yuritib, fizikaviy tovush bilan nutq tovushlarini bir-biridan farqlaydi va har birini alohida nom bilan ataydi. Birinchisi “savt”, ikkinchisi esa “harf” atamasi orqali nomlanadi.

Ibn Sino nutq tovushlarini hosil qiluvchi uch jihatni ko'rsatadi:

1. Ko'krak qafasida paydo bo'ladigan diafragma va ko'krak muskullari orqali harakatga keladigan havo to'liqini.

2. Havo to'liqining nutq organlarining turli nuqtasida to'siqqa uchrashi.

3. Tovushga turlicha tembr ottenkasini beradigan va turli akustik belgi hosil qiladigan rezonator.

Nutq tovushlarini tasniflar ekan, unli va undosh tovushlarini bir-biridan farqlaydi: unli larni musannita, undoshlarni samita deb nomlaydi. Risolada unli larni haqida qisqacha ma'lumot berilsa, undoshlarning esa turli xil farqlovchi belgilari asosida tasnifini beradi.

Arab tilshunosligida Ibn Sinogacha unli larni alohida fonologik birlik sifatida qaralmasdan, undoshlarning tarkibiy qismi sifatida o'rganilgan. Shu jihatdan, ibn Sinoning dunyo tilshunosligida birinchilardan bo'lib undosh va unli larni ajratganligini alohida ta'kidlash lozim.

Undoshlar paydo bo'lish usuli, o'rni, akustik xossasi hamda cho'ziqlik, sifat va miqdor belgilariga ko'ra tasnif qilinadi. Paydo bo'lish usuliga ko'ra undoshlar portlovchi va sirg'aluvchilarga bo'linadi. Portlovchilar “bi habs tamm to'liq to'siqni yorib o'tish orqali hosil bo'ladi. Sirg'aluvchi “bi habs gair timm” esa muallif fikricha, o'pkadan chiqayotgan havoning to'liq bo'lmagan to'siqdan sirg'alib o'tishi orqali paydo bo'ladi.

Akustik belgisiga ko'ra undoshlarni jarangli (maghura) va jarangsiz (mahmusa) larni ajratadi. Biroq bularga to'liq tavsif bermaydi.

Undoshlar cho'ziqlik belgisiga ko'ra sodda undoshlar (mufrada) va murakkab undoshlar (murakkaba) ga bo'linadi ¹.

Yuqoridagi ma'lumotlardan anglash mumkinki, ibn Sino jahon tilshunosligida fonetika va fonologiyaning rivojlanishiga barakali hissa qo'shgan allomadir.

Tayanch tushunchalar:

Morfologik usul, geneologik usul, tilning tarixiy taraqqiyoti, o'zbek tilini davrlashtirish, qo'shimchali tillar, qo'shimchasiz tillar, agglyutinativ tillar, flektiv tillar.

“Fanlar tasnifi haqidagi so'z”, fahmiy bilish, idrokiy bilish, zot-tazohir, “Saydana”, dorivor moddalar lug'ati, fonema, “Asbobi xudut al xuruf”, fonetika, undosh tovush, savt, harf, musannita, samita atamasi.

Savol va topshiriqlar:

1. “O'zbek tilshunosligi tarixi» kursi fan sifatida qachondan boshlab shakllangan?
2. “O'zbek tilshunosligi tarixi” kursining maqsadi nimalardan iborat?

¹ Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. –T., O'zbekiston, 2002. 23-bet.

3. “O’zbek tilshunosligi tarixi» kursining boshqa fanlar bilan o’zaro aloqasini tushuntirib bering.
4. “O’zbek tilshunosligi tarixi” fanining davrlarga bo’linish tartibini aytib bering.
5. “O’zbek tilshunosligi tarixi” bilan “O’zbek adabiy tili tarixi” kursining o’zaro o’xshash va farqli tomonlarini aytib bering.
6. Xalifalik davrida tilga munosabat qanday bo’lganligini ayting. Bu davrda yashagan tilshunoslarni bilasizmi?
7. Forobiyning tilshunoslikka oid qarashlari qaysi asarida o’z aksini topgan?
8. Forobiyning umumiylik-xususiylik, mohiyat va hodisa dialektikasi haqidagi fikrlarini ayting.
9. Forobiy “Fanlar tasnifi haqida so’z” asarida tilshunoslik mundarijasini necha bo’limga bo’ladi? Ularning nomlarini ayting.
10. “Fozil odamlar shahri» asaridan tilga oid fikrlarni o’qib, izohlab bering.
11. “Saydana” asari haqida gapiring.
12. “Saydana» necha bob, ularda nimalar haqida so’z yuritiladi?
13. Abu Ali ibn Sinoning tilga bo’lgan munosabatini ayting.
14. “Asbob” asari haqida nimalarni bilasiz?
15. Ibn Sinoning nutq tovushlari haqidagi fikrlarini ayting.

2 - mavzu: Qoraxoniylar davrida tilshunoslik. (2 soat)

Reja:

1. Qoraxoniylar davri tilshunosligi.
2. M.Koshg`ariy – qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning asoschisi.
3. Fonetik qarashlari.
4. Leksika va leksikografiya sohasidagi qarashlari.
5. So’z yasalishi va morfologik qarashlari.
6. M.Zamahshariyning tilshunoslikka oid asarlari haqida.

Mahmud ibn ul Xusayn ibn Koshg`ariy turkiy xalqlar orasida yetishib chiqqan birinchi qomusiy turkolog olim, uning tug`ilgan va vafot etgan yili noma`lum, tarjimai holiga oid bevosita tarixiy manbalar yo`q. Hozirga qadar tadqiqotchilar uning hayoti xususiyada “Devonu lug`otit-turk” asari asosida va qoraxoniylar davri tarixiga oid boshqa manbalarga suyanib quyidagi taxminlarni bayon qiladilar. Mahmud Koshg`ariy 1029-1038 yillar orasida Koshg`arda tug`ilgan. Uning qoraxoniylar sulolasiga mansub bo`lishi Koshg`arda yaxshi ma`lumot olishga imkon bergan. Buni Mahmud Koshg`ariyning bobolari haqida aytgan gaplari ham tasdiqlaydi. Mahmud Koshg`ariyning yozishicha, uning bobolari turk shaharlarini somoniylardan tortib olgan, qoraxoniylar sulolasiga asos solgan.

Mahmud Koshg`ariy Buxoro, Nishopur, Samarqand, Marv, Bog`dod kabi shaharlarda tahsil ko`radi, arab tilini, arab filologiyasi sirlarini puxta o`rganadi. Lekin u umrini turkiy xalqlar va ularning tilini tadqiq etishga bag`ishlaydi.

M.Koshg`ariy ko'p yillar davomida to'plagan bu materiallar asosida "Devonu lug`oti-turk" ("Turkiy so'zlar devoni") nomli uch jildlik asar yozadi. Bundan tashqari, uning yana bir asar yozgani ma'lum. M.Koshg`ariyning hali topilmagan "Kitobi javohir an-nahv fi-l-lug`at at-turk" nomli ikkinchi asarida turkiy tillar sintaksisi ustida bahs yuritiladi.

Muallif "Devon"da so'zlarning turli ma'nolari va ma'no nozikliklarini izohlash bilan birga, turli qabila tillari o'rtasida bo'lgan xarakterli fonetik va morfologik farqlarni ham ko'rsatib o'tadi. Bu jihatdan devon faqat izohli lug`atgina bo'lib qolmay, XI asr tilining fonetika va grammatikasi hamdir. Shuningdek, devon XI asr O'rta Osiyoda mavjud bo'lgan turkiy qabilalar va ularning til xususiyatlarini o'rganishda va hozirgi ayrim turkiy xalqlarning shakllanishi va taraqqiyotini belgilashda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, devon XI asrdagi hamda undan avvalgi va keyingi davrdagi yozma yodgorliklarni tushunish va o'rganishda qimmatli manbadir.

Mazkur asar o'z davri uchun katta voqea bo'lgani kabi, turkologiya fani sohasida ham ilk namunadir. Mahmud Koshg`ariy turkologiya fanining birinchi ustodi bo'ldi, turkologiyaning maxsus fan sifatida rivojlanishiga asos soldi.

M.Koshg`ariyning "Devonu-lug`otit-turk" asari ikki qismdan iborat: 1) k i r i sh; 2) l u g ` a t.

Kirish qismida turkiy tillarning mavqei, lug`atning oldiga qo'yilgan vazifalar, asarning mundariyasi, turkiy tillarda so'z tuzilishi va yasalishi, turkiy qabilalar va ular tillarining o'ziga xos xususiyatlari, tilda va lahjalarda bo'lgan so'zlar haqida fikr yuritiladi.

Asarning lug`at qismi sakkiz bo'limdan iborat:

- 1) hamzali so'zlar (boshida alif, vov, yoy harflari keladigan so'zlar) bo'limi;
- 2) solim (tarkibida alif, vov, yoy harflari kelmaydigan so'zlar) bo'lim;
- 3) muzoaf (tarkibida bir harfi ikki marta keladigan-takrorlangan so'zlar) bo'limi;
- 4) misol (boshida, o'rtasida yoki oxirida alif, vov, yoy harflaridan biri kelgan so'zlar) bo'limi;
- 5) uch harfli so'zlar bo'limi;
- 6) to'rt harfli so'zlar bo'lim;
- 7) g`unnalar (tarkibida burun tovushlari keladigan so'zlar) bo'limi;
- 8) tarkibida ikki undosh qator kelgan so'zlar bo'limi.

Lug`atning shu tartibda tuzilishi arab leksikografiyasi an'alariga mos edi. Muallif lug`at tuzishda mashhur arab tilshunosi Halil ibn-Ahmadning "Kitob-ul-ayn" lug`atiga asoslanganini alohida ta'kidlaydi.

Mahmud Koshg`ariy turkiy tillar qurilishini tasvirlashda qiyosiy metoddan foydalanib, tilshunoslikda qiyosiy-tarixiy metodning asoschilaridan biri bo'ldi. U turkiy tillarning leksikasini, morfologiyasini va fonetikasini bir-biriga qiyoslab, ular orasidagi o'xshash va farqli tomonlarni ko'rsatdi. Bu faktlarni izohlashga tarixiy aspektda yondoshdi.

Lug`atda turkiy tillar leksikasiga mansub 7500 so'z izohlangan. O'sha davrdagi taomilga ko'ra, turkiy so'zlarga arabcha izoh beriladi. Shuning uchun ham M.Koshg`ariy "Tushunilishi oson bo'lsin uchun asarda arabcha istiloh (termin)lar qo'lladim", -deydi.

Mahmud Koshg`ariy til faktlari asosida qabilalarning bir-biriga bo`lgan munosabatlarini ko`rsatdi va o`sha davrdagi iqtisodiy, ijtimoiy sharoitlar asosida qabilalarning bir-birlari bilan birika boshlashi natijasida yuzaga kelgan xalq tilining ilk davri materiallaridan namunalar keltirdi. U o`zbeklar, qozoqlar, qirg`ishlar, turkmanlar, uyg`urlar, tatarlar boshqa xalqlarning qadimgi qabilalarini va ularning qadimgi sodda tillaridagi so`zlarning qaysi xalq va qabila tiliga oid ekanligini izohladi. Shu nuqtai nazardan lug`atdagi so`zlarni bir necha guruhga ajratish mumkin.

Hamma turkiy tillarda qo`llanadigan so`zlar: *ish, esh, yo`l, bosh, boy* kabilar. Bu so`zlar fonetik variantlari bilan farqlansa-da, bir xil shakl va ma`noda ishlatiladi. Bir xil shakl va ma`noda bir necha turkiy tillarda qo`llaniladigan so`zlar: *bol* (suvor va qipchoq tilida asl ma`nosida), *suzg`aq* (arg`u va qipchoq tilida cho`mich ma`nosida) kabilar.

Muayyan xalq, qabila tiliga oid so`zlar: *gejak-kokil* (arg`u tilida), *o`tunch-qarz* (o`g`uz tilida), *qaraq-lamoq-o`g`irlamoq, talamoq* (yag`mo tilida), *tunak-qamoqxona, zindon* (barsag`on tilida), *sug`ut-suzma* (qarluq tilida) kabilar.

Bu haqda Mahmud Koshg`ariy shunday yozadi: "Men turklar, turkmanlar o`g`uzlar, chigillar, yag`molar, qirg`izlarning shaharlarini, qishloq va yaylovlarini ko`p yillar kezib chiqdim, lug`atlarini to`pladim, turli xil so`z xususiyatlarini o`rganib, aniqlab chiqdim. Men bu ishlarni til bilmaganim uchun emas, balki bu tillardagi har bir kichik farqlarni ham aniqlash uchun qildim. Ularni har tomonlama puxta bir asosda tartibga soldim".(DLT. I.44)

M.Koshg`ariy o`zlashma so`zlarga ikki xil munosabatda bo`ladi: 1) Kundalik turmushda qo`llanadigan turli xil narsalar borki, ular hayotga singib ketgan. Ularni nomlovchi so`z tilda bo`lmasa, shunday so`zni qo`shni tildan olish mumkin. 2) Tilda mavjud so`zlar o`rnida boshqa til so`zini qo`llash zararli deb hisoblaydi. Bu fikrga asoslanganimizga bilge, *bitig, urag`ut* kabi turkiy so`zlar o`rnida arabcha *olim, kitob, ayol* kabi so`zlarni qabul qilmasligimiz kerak.

Mahmud Koshg`ariy o`zlashtirma so`zlarni ham e`tibordan chetda qoldirmadi. Masalan, qarit (o`g`irlash, talash) so`zini u turkman tiliga arab tilidan o`zlashgan deb taxmin qiladi. Shu bilan birga, M.Koshg`ariy turkiy tillardan boshqa tillarga o`zlashgan so`zlarga ham to`xtalib o`tadi. "Paxtali to`n" ma`nosidagi *yolma* so`zi haqida u shunday deb yozadi: "Forslar buni turkiy xalqlardan olib yalma shaklida talaffuz qiladilar. Arablar forslardan olib yolmoq shaklida qo`llaydilar. Hech kim bu so`zni turklar forslardan olgan deb da`vo qila olmaydi. Chunki men bu so`zni eng qirg`oq chegaralarda yashovchi oddiy turk xalqlaridan ham eshitganman. Bular boshqa xalqlardan ko`ra, bu xil yomg`ir yelpig`ichiga muhtojroqdirlar. Chunki bularning yurtida qor, yomg`ir ko`pdir" (DLT. Sh, 41-42).

Mahmud Koshg`ariy so`zlarni uch turkumga ajratadi: ismlar, fe`llar va harflar, yordamchi so`zlar va qo`shimchalarni u harf termini bilan ataydi.

M.Koshg`ariyning XI asr fonetikasiga bergan izohlari turkiy tillar fonetikasi uchun qimmatlidir. Biroq u o`z asarida fonetikani maxsus bo`lim sifatida izohlamagan. Chunki asar tuzilishi uni talab qilmagan. Lekin M.Koshg`ariy zarur o`rinlarda u davr tili fonetikasi keng izohlangan

U “Devon”da fonetik qonunlarning tovush almashinuvi, tovush tushishi, tovush orttirilishi kabi ko’rinishlarini batafsil izohladi. Ayniqsa, u har bir tovush ustida maxsus tekshirish olib bordi va tilda bo’lgan har bir tovushni to’la ilmiy asosda o’rgandi. Tovushlarning kombinatsiya natijasidagi mavqelarini, fiziologik va akustik holatlarini aniqlab chiqdi. Tovush va harf munosabatlarini ilk marta u aniqladi va u davr yozuvida mavjud harflar jonli til tovushlarini ifodalashdan ojiz ekanligini ochib berdi va birinchi marta yozuvdagi ana shu kamchilikni to’ldirish uchun bir qancha yangi belgilar tayinladi. U shunday yozadi: “Turkiy tillar yozuvda qo’llanuvchi harflar o’n sakkiztadir. Holbuki, tildagi tovushlar o’n sakkizta emas, ko’pdir. Bu o’n sakkiz harf yetishmaydi. Bulardan boshqa tilda bo’lgan tovushlarni berish uchun yana yetti harf kerak. Lekin u harflar yo’q. U yetti tovushni ana shu mavjud harflar ustiga maxsus belgi qo’yib yozidadi” (DLT, 1 t., 7-8-bet).

Mallif o’z asarida unlilar tizimi, unlilarda kenglik va torlik, cho’ziqlik va qisqalik, unlilar masalasida qabilalar tiliga xos xususiyatlar va ularda teng kelish hodisasi kabi atroflicha yoritilgan. Masalan. «*Yog’och so’zini keng unli bilan ham, tor unli bilan ham qo’llash mumkin*” (1 t., 76-bet) *Aran – erlar, Aran (cho’ziq bilan) – otxona* (1 t., 73-bet). *Qurug’ ham mumkin, qurig’ ham mumkin* . (1 t., 18-bet)

Asarda undoshlar sistemasi, sodda undoshlar, kombinator undoshlar, undoshlarda jaranglanish va jarangsizlik xususiyati, ikki undoshning qator kelishi, undoshlarning artikulyatsiya asosidagi holatlari, ayrim qo’shni tillardan kirgan undoshlar keng izohlab berilgan. “*Turkiy tillar so’zlaridagi tovushlarda torlik, kenglik, qattiqlik, yumshoqlik, ikki undoshning qator kelish holatlari bor*. (1 t., 10-bet)

Mahmud Koshg’ariy tovushlar garmoniyasi masalasiga alohida e’tibor berar ekan, shu jihatdan so’zlarni ikki guruhga ajratadi: qattiq so’zlar va yumshoq so’zlar, qattiq so’zlar til orqa tovushlaridan tarkib topsa, yumshoq so’zlar til oldi tovushlardan tarkib topgan. So’zga qo’shiladigan qo’shimchalar shu so’z tarkibidagi tovushlarga moslashadi: qattiq so’zga qo’shimchani qattiq varianti, yumshoq so’zga esa qo’shimaning yumshoq varianti qo’shiladi. Masalan, sifatdosh qo’shimchasining -g’an varianti qattiq so’zlar, -gan varianti esa yumshoq so’zlarga qo’shiladi: barg’an, kelgan kabi.

Mahmud Koshg’ariy qattiq va yumshoq so’zlarni farqlashda ko’rsatkichlardan foydalanishga harakat qiladi. Masalan, tarkibida q yoki g` tovushi kelgan so’zlarni u qattiq so’zlar guruhiga, tarkibida k yoki g tovushi kelgan so’zlarni esa yumshoq so’zlar guruhiga kiritadi.

...Bu tilda burun tovushi kelgan so’zlar o’rniga ko’ra j harfi bilan birikib keladi, *birinj, beshinj* degandagi kabi yoki “n” “g” bilan birikib keladi *ming, yung* degandagi kabi (III t., 262-bet) ... harf tovushi hind xalqi bilan aralashish natijasida tilga kirgan tovushdir. (I t., 9-bet)

Tilshunoslikdagi muhim masalalardan bo’lgan tilning kelib chiqishi, so’z turkumlarining qay biri oldin paydo bo’lganligi, ikki tillilik masalasi, chet tillar ta’siri masalasi kabi nazariy masalalarga ham to’xtaladi. Shu o’rinda aytish joizki, bu masalalarda M.Koshg’ariy, albatta, o’z davri saviyasiga mos tarzda fikr yuritgan.

Mahmud Koshg’ariyning “Devonu lug’otit-turk” asarii faqat tilshunoslik asari bo’lib qolmasdan, o’z davrini qomusidir. Chunki unda turli xalqlarning tarixi, jo’g’rofiyasi, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, urf-odatlarini, tabiiy sharoiti, etnografiyasi,

adabiyoti haqida qimmatli materiallar mavjud. M.Koshg`ariy tomonidan berilgan ma'lumotlar hozirgi tillarni o'rganishda va ularning qiyosiy-tarixiy grammatikasini yaratishda qimmatli manba bo'lib qoladi.

Bizga ma'lumki, XV asrgacha arab tili din tili, fan tiliga aylandi. Xalifalik hududida yashagan barcha din va fan ahli, qaysi xalqqa mansub bo'lishidan qat'iy nazar, o'z asarlarini arab tilida yozdilar. Shuning uchun ham dunyoga arab madaniyati, deb shuhrat qozongan madaniyatning shakllanishi va ravnaq topishida arablardan tashqari, arab bo'lmagan xalq vakillarining ham xizmatlari beqiyos kattadir. Ana shunday olimlardan biri xorazmlik Abul-qosim Mahmud ibn Umar ibn Muhammad az-Zamahshariydir.

U hijriy 467 sana rajab oyining 27-sida, chorshanba kuni (melodiy 1075 yilning 19 martida) Xorazmning katta qishloqlaridan biri bo'lgan Zamaxsharda tug'ilgan va shu boisdan ham az-Zamahshariy taxallusini olgan.

Az-Zamahshariy haqidagi ma'lumotlar asosan o'rta asr arab manbalarida, qisman ma'lumotlar esa olimning o'z asarlarida keltirilgan. Az-Zamahshariyning hayoti va faoliyatini yoritishda Ibn Xallikon ("Vafoyyot al-a'yon"), ibn al-Anbariy ("Nuzhat ul-alibbo fi tabaqat il-udabo"), Yoqut al-Hamaviy ("Mu'jam al-udabo"), ibn al-Qiftiy ("Inbah ar-Ruvot") va boshqa arab mualliflarining asarlari asosiy manba rolini o'taydi. Az-Zamahshariyning otasi unchalik badavlat emasdi, lekin o'z davrining savodli, ancha taqvodor, diyonatli kishi bo'lgan. Zamahshar qishlog'idagi masjidlarning birida imomlik ham qilgan. U xulq-atvori yaxshi, muruvvatli kishi bo'lib, bu fazilat bilan el orasida obro'-e'tibor topgan. Az-Zamahshariyning onasi ham juda taqvodor ayollardan bo'lgan. Olimning yoshlik yillari diniy, taqvodorlik muhitida shakllangan.

Zamahshariy dastlabki bilimni o'z otasidan oladi. Uning shaxsiy hayotiga doir ma'lumotlardan shu narsa ma'lumki, uning bir oyog'i bo'lmay, yog'och oyoqda yurgan. Shuning uchun bo'lsa kerak, otasi uning bir kiyim tikuvchiga shogird qilib bermoqchi bo'ladi. Lekin Zamahshariy ilmga havasmand bo'lgani uchun otasidan o'zini Xorazmga- madrasaga o'qishga yuborishni so'raydi. O'g'lidagi ilmga zo'r ishtiyoqni sezgan ota uning iltimosiga bajoni dil rozi bo'ladi. Madrasada ilm-fanning turli sohalari bilan qiziqib, o'qitiladigan ilmlarni to'liq egallaydi. Shuningdek, o'sha davrda ilm ahllari orasida muhim hisoblangan xattotlik san'ati siru asrorini ham mukammal o'zlashtiradi. U 12 yoshga to'lgach, o'z bilimni oshirish va har tomonlama zakovat egasi bo'lish maqsadida u Buxoroga keladi. Chunki Buxoro somoniylar davridan boshlab, ilm-fan markaziga aylangan edi. Bu yerda o'sha davrning ilg'or, fozil kishilari yig'ilgandi. Zamahshariy Buxorodagi o'qishini tamomlagach, bir necha yil Xorazmshohlar xizmatida bo'ladi. Biroq qobiliyati, ilmu fazilatlariga munosib e'tibor ko'rmagach, o'zga yurtlarga safar qiladi. Bu davrda Xorazmshohlar Saljuqiylar qo'l ostida edi. Xorazmda yaxshi obro'-e'tibor topmagan az-Zamahshar Saljuqiylar hukmdori Malikshoh huzuriga keladi. Malikshoh va uning vaziri Nizom ul-Mulk ilm-fan va madaniyat ravnaqi yo'lida katta ishlar ilgan edilar. Ular ilm-fan, ma'rifat homiysi sifatida olimlarga, shoiru adiblarga katta e'tibor beradi. Shunday qilib, az-Zamahshariy ham Nizom ul-mulk xizmatiga kiradi va unga atab bir madhiya tarzida qasida yozadi. Biroq bu yerda u o'zi orzu qilgan martabaga erisha olmaydi. Manbalarda Nizom-ul-mulk sunniy mazhabiga mansubligi, az-

Zamahshariy esa mu'tazaliy oqimiga mansub bo'lgani uchun ham o'rtada kelishmovchiliklar bo'lganligi sabab qilib ko'rsatiladi.

Shundan keyin Xurosonga yo'l oladi. U yerda mashhur kotib Xusayn al-Ardistoniy bilan tanishadi. Bir qancha vaqt shu yerda yashaydi, biroq bu yerda ham uning ahvoli Xorazmdagidan yaxshi bo'lmaydi. U yerdan Saljuqiylar davlatining poytaxti Isfahonga keladi.

1118 (hijriy 512) yilda bo'lg'usi olim og'ir bir kasalga uchrab, ancha qiyinchiliklarni boshdan kechiradi. U bu darddan tuzalgach, mansab uchun hukmdorlar ostonasiga bosh urmaslikka ont ichadi va qolgan umrini faqat ilmga bag'ishlashga ahd qiladi. U Bog'dodga boradi, u yerda, Bog'dod olimlaridan saboq oladi, munozaralar qiladi. Bir muddat Bog'dod shahrida turgandan so'ng yana safarni davom ettirib Makkaga yo'l oladi. Makka shahrining amiri Hamza ibn Vaxxos uni iliq kutib oladi. Ibn Vaxxos bir qancha nazmiy va nasriy asarlar muallifi edi. U az-Zamahshariy iste'dodiga yuksak baho berib, qadr-qimmatini munosib baholadi. U Arabiston yarim orolining barcha mintaqalarini ziyorat qiladi.

U Makkada 2 yilcha yashaydi, o'z tuprog'ini qumsab, vataniga qaytadi. U qaytib kelganda Xorazmda Muhammad ibn Anushtagin hukmronlik qilardi. Anushtagin olimga marhamatlar ko'rsatdi. Uning vafotidan so'ng o'g'li Otsiz ham az-Zamahshariy katta hurmat-e'tibor bilan qaradi. Buni olim "Muqaddimat ul-adab" asarida alohida ta'kidlaydi. Shunga qaramay yana u Makkaga boradi. Makkada amir bu safar ham iliq qarshi olib, unga katta izzat-ikromlar ko'rsatadi. Uni har doim qo'llab-quvvatlaydi. Ibn Vaxxosning yordamidan ilhomlanib o'zi Qur'on tafsiriga bag'ishlangan mashhur asari "Al-Kashshof" asarini yozadi. Bu safar olim Makkada uch yil yashaydi va yana vatani Xorazmga qaytadi. Hijriy 538 (1143) yil Jurjoniya (Urganch)da vafot etadi.

Az-Zamahshariy o'z davrining yirik tilshunosi, lug'atshunosi, shoiri, olimi sifatida mashhurdir. U diniy ilmlar majmuasi-hadis, tafsir, fiqh va qiroat ilmi bo'yicha ham katta shuhrat qozongan. Az-Zamahshariy dastlabki ustoz al-Isfahoniy bo'lib, undan Zamahshariy lug'at va nahv sohasida mukammal ta'lim oladi. Umuman, Zamahshariyning ilmiy, ijodiy faoliyatida bir millatni boshqa millatdan ustun qo'yish bo'lmasa ham, lekin u arab tiliga, arablarning ilm-fandagi yutuqlariga yuqori baho beradi. U grammatikaga bag'ishlangan "Al-Mufassal" asarini odamlarning istagini hisobga olib, "arab kalimalarini bilish uchun" yaratgani, "Muqaddimat ul-adab" asarini esa g'ayri arablar arab tilini o'rganmog'i uchun yozganini ta'kidlaydi. O'z hayotida o'chmas iz qoldirgan Makkada az-Zamahshariy 5 yilcha yashadi. Shu boisdan ham u o'z ismiga Jorulloh ("Ollohning qo'shnisi") degan sharaflil laqab qo'shib aytilishiga muyassar bo'ladi.

N.Ibrohimov olim haqida shunday yozadi: Xorazmdan yetishib chiqqan ulug'alloma Mahmud az-Zamahshariy arab tilining grammatikasi haqida ko'p qimmatli asarlar yaratgan. Arablar aytadilarki: "Agar shu ko'sa, cho'loq bo'lmaganida arablar o'z tillarini bilmas edilar". Bugungi kunda ham bu asarlar Arabistonda o'z dolzarbliligini, qimmatini yo'qotmagan.

Arab tili grammatikasiga bag'ishlangan ("Al-Mufassal fi san'at al-i'rab") ("Fleksiya san'ati haqida mufassal kitob") bu asar qisqacha qilib "Al-Mufassal" deb atalib, az-Zamahshariy Makkada yashagan davrida – 513-515 (1119 yil dekabr, 1121

yil, mart) yillar ichida yozilgan. O'sha davrning o'zidayoq bu asar arablar orasida keng shuhrat qozonadi, arab tilini o'rganishda asosiy qo'llanmalardan biri sifatida taniladi. Hatto Suriya hukmdori Muzaffariddin Muso kimda-kim bu asarni yod olsa, unga 5 ming kumush tanga pul va sarupo sovg'a qilishni va'da qilgan. Bir qancha kishilar asarni yod olib qimmatli sovg'alarga ega bo'lganliklari haqida manbalarda ko'rsatilgan. Demak, anglash mumkinki, o'sha davrdayoq az-Zamahshariyning bu asari arab tilining o'rganuvchilar uchun asosiy qo'llanma sanalgan.

Az-Zamahshariyning Xorazmshoh Alouddavla Abdulmuzaffar Otsizga bag'ishlab yozilgan "Muqaddimat ul-adab" ("Adabiyotga kirish") asari alohida ahamiyatga ega. O'zFA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyining noyob qo'lyozmalar fondida 4 tilda (arab-fors, eski o'zbek tili va mo'g'ulcha) yozilgan 202 inventar raqamida "Muqaddimat ul-adab" qo'lyozmasi saqlanadi. Asar besh qismdan iborat. 1. ismlar, 2. fe'llar, 3. bog'lovchilar, 4. ismlarning turlanishi, 5. fe'llarning tuslanishi.

Asar ko'p tilli lug'atdir. Unda arab leksikasi va grammatikasi materiallari forscha, ba'zi nusxalarida xorazmcha, turkcha va mo'g'ulcha tarjimasi bilan berilgan. Mahmud Zamahshariy o'z davrida so'zlarning asl ma'nosinigina berib qolmasadan, ularning ko'chma ma'nolarining ham mufassal keltiradi.

Lug'at tuzilishi haqida tushuncha hosil qilish uchun quyidagi misollarni keltiramiz:

Arabcha	Forscha	Turkiy	Ma'nosi
Ibil	Shuturon	Teveler	Tuyalar
Savr	Gov	Okuz	Ho'kiz
Baqara	Modagov	Inek	Sigir

Mazkur lug'at kitob o'sha davrda arab tilining iste'molda bo'lgan barcha so'zlarni, iboralarni qamrab oladi. Bu so'zlarning ma'nolari, etimologiyasi yetarli darajada keng sharhlanadi.

"Muqaddimat ul-adab" fors tilidan tashqari, chig'atoy (o'zbek), mo'g'ul, turk tillariga o'sha davrning o'zida tarjima qilingan.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, arab tilidan boshqa tilga tarjima qilingan 2 tilli lug'at Zamahshariyga qadar yaratilmagan. Zamahshariy Sharq lug'atchiligi tarixida birinchi marta alifbo tartibida izohli lug'atlar tuzish bilan qanotlanmay, yana birinchi bo'lib ikki tilda lug'at yaratdi.

"Muqaddimat ul-adab" asarining chig'atoy va mo'g'ul tillaridagi tarjima matni 1938 yilda N.N.Poppe tomonidan alohida kitob holida nashr etilgan.

Tayanch tushunchalar:

Turkiy tillar tasnifi, fonetik, leksik, morfologik qarashlar, tilning paydo bo'lishi, leksikografiya.

Abu Hayyon, Jamoliddin ibn Muxanna, Jamoliddin At-Turkiy, "At-tuhfa", Mahmud Koshg'ariy, "Devonu lug'otit turk", Mahmud Zamahshariy, Jorulloh, "Muqaddimat ul-adab", arab tilshunosligi, tematik lug'at, qomusiy lug'at.

Savol va topshiriqlar:

1. Mahmud Koshg`ariyning “Devonu lug`otit turk” asari qachon va qanday maqsadda yaratildi?
2. Asarning muqaddima qismida qanday masalalar yoritilgan?
3. “Devonu lug`otit turk” asarining lug`at qismi qaysi bo`limlarni o`z ichiga oladi?
4. “Devon”dagi turk tabaqalari va qabilalarining haqidagi fikrlarini aytib bering.
5. Mahmud Koshg`ariyning lingvistik qarashlari nimadan iborat?
6. Mahmud Koshg`ariy ma`no toriyishi, ma`no ko`chishi haqida qanday fikrlar bildirgan. Ularga misollar ayting.
7. “Devon”dan ma`no ko`chish hodisasiga oid misollar topib yozing.
8. “Devonu lug`otit turk” asari qanday ilmiy, ma`naviy-ma`rifiy ahamiyatga ega?
9. Mahmud Koshg`ariy uch uzvli so`z yasaliş haqida qanday ma`lumot beradi?
10. M.Koshg`ariy so`z turkumlarini necha guruhga ajratadi.
11. Devonda masdar haqida qanday ma`lumot beradi?
12. Mahmud Zamahshariy tilshunoslikka oid qanday asarlar yaratdi?
13. “Muqaddimat ul-adab” asarida qanday masalalar yoritilgan?
14. Arablar Mahmud Zamahshariyning arab tili grammatikasini o`rganish borasidagi xizmatlarini qanday baholashadi?
15. Mahmud Zamahshariy turkologiya taraqqiyotiga qanday hissa qo`shdi?
16. Mahmud Zamahshariyning asarlari tadqiqi bilan kimlar shug`ullangan?
17. “O`zbek tili va adabiyoti», “Til va adabiyot ta`limi” jurnallaridan Mahmud Zamahshariy asarlari haqida yozilgan ilmiy maqolalarni topib o`qing va ularga o`z munosabatingizni bildiring.

3-Mavzu: Mo`g`ullar davri o`zbek tilshunosligi

Reja:

1. “At-tuhfa” asarida tilshunoslik masalalari.
2. Grammatik masalalar.
3. Ot va uning grammatik xususiyatlari.
4. Fe`l va uning grammatik xususiyatlari.

Mo`g`ullar hukmronligi davrida o`zbek, uyg`ur adabiy tillari mustaqil tillar sifatida bir-biridan ajraldi. O`zbek tilida bir qator badiiy asarlar maydonga keldi.

A.K.Borovkov, A.M.Shcherbak kabi turkolog olimlarning ta`kidlashicha, “Tafsir”, “Muhabbatnoma”, “Qissai Rabg`uziy” singari yozgorliklar o`zbek tilining ilk hisoblanadi. Shuningdek, noma`lum muallif tomonidan yozilgan “At-tuhfatuz zakiyatu fillug`atit turkiya” asari ham shu davrga mansubdir.

Turkiy halqlar mo`g`ullar asoratida bo`lsa ham, lekin ularning madaniy va ma`naviy hayotda ta`siri kuchli bo`ldi. Bu davrda turkiy tillar lug`ati va grammatikasiga bag`ishlangan bir qator asarlar maydonga keldi. Ana shunday asarlar qatoriga turkiy tillar lug`ati va grammatikasiga bag`ishlangan muallif noma`lum

bo'lgan "Kitob at-tuhfatuz zakiyatu fi-l-lug`at-it-turkiya" ("Turkiy til haqida noyob tuhfa") asar ham kiradi.

Kitob kirish qismida muallif shunday yozadi: "Mendan (bu ishni) so'raganlarga ho'p deb va'da qildim. Tangridan muvaffaqiyat va yordam so'radim" ("At-tuhfa" 8-bet) deyilishi ya'ni muallifdan mazkur asarni yozishni kimlardir so'raganiga ishora qilinishi uning yetuk olim bo'lganidan dalolat beradi. Asar muallifi M.Koshg`ariy izidan borib, turkiy qabila tillarini, ularning o'zaro farqi va o'xshash jihatlarini aniqlashga harakat qilgan.

"At-tuhfa" asarida qipchoq tili materiallari tahlil qilingan. "Men bu asarda,-deb yozadi muallif,-qipchoq tili (xususiyatlari)ga asoslandim. Chunki eng ko'p qo'llangan til qipchoq tilidir".

Bu nodir yodgorlik 1922 yilida turk olimi Fuat Kupruluzoda tomonidan fan olamiga ma'lum qilindi. Shundan keyin polyak olimi A.Zayonchkovskiy, venger olimi 1942 yilda T.Xalal-Kun bu nodir yodgorlik faksimilesini nashr etdi. 1945 yilda Bosim Atalay "At-tuhfa"ning turk tiliga tarjimasini nashr etib, unga asarning to'liq lug`ati va fotokopiyasini ilova qildi.

1968 yilda S.Mutallibov mazkur asarni o'zbek tilida nashr ettirdi. 1978 yilda E.Fozilov va M.Ziyayevalar "At-tuhfa"ni kirish, leksik-grammatik ocherk, tarjima, so'zlik, grammatik ko'rsatkichlari bilan rus tilida nashr etdilar. Kirish qismida asarning o'rganilish tarixi haqida to'liq ma'lumot beriladi.

Asar 182 betdan iborat, arab tilida yozilgan. Asarda qipchoq tili materiallari uch qismda izohlanadi: kirish, lug`at, grammatika. "At-tuhfa"ning lug`at qismi 29 bobni tashkil etadi.

Kirish qismida tafakkur va tilning inson jamiyatidagi rolini ko'rsatib, muallif "inson hayvondan faqat tushunish va so'z (so'zlash) bilan farq qiladi" deydi.

Lug`at qismida 3 mingta turkiy so'z berilgan bo'lib, ularning ma'nolari arab tiliga tarjima qilingan.

Qipchoq tili morfologiyasi va sintaksisi 64 bobdan iborat grammatika qismida tavsiflanadi. Unda muallif turkiy tildagi barcha grammatik kategoriya va shakllarni klassik arab tilshunosligi terminlari vositasida izohlaydi.

"At-tuhfa" asarida tilning ijtimoiyligi, uning vazifasi, til va tafakkur munosabati haqida fikrlar uchraydi. Insonning o'ziga xos xususiyati uning fikrlash qobiliyatiga ega ekanligi, fikr esa nutq yordamida ifoda qilinishi haqida quyidagicha ma'lumot beriladi: «Inson hayvondan faqat tushunish va til (so'zlash) bilangina farq qiladi" ("At-tuhfa", 8-bet).

Asarda grammatik materiallar ham beriladi. Turkiy til grammatikasi arab grammatikasi an'analari asosida o'rganiladi. Arab tili grammatikasi bilan turkiy til grammatikasi solishtiriladi. Arab tilidagi grammatik tushunchalar turkiy tilda qanday ifodalanishi haqida ma'lumot beriladi. Natijada amalda solishtirma grammatikaning ilk namunasi paydo bo'ladi.

So'z turkumlari arab tilshunosldigi an'anasiga ko'ra ism (ot), fe'l va yordamchi so'zlarga bo'linadi. Olmosh, sifat, son, ham ismlar tarkibida o'rganiladi. Har qaysi so'z turkumining grammatik o'rni bilan mazmuniy xususiyatlari yoritiladi.

Otlarning son, egalik, kelishik kategoriyalari, kichraytirish shakllari haqida ma'lumot beriladi.

Otlar son jihatidan birlik va ko'plik zidlanishiga ega ekanligi va ko'plik a'zosi ko'plik shakliga egaligi, birlik a'zosi esa bunday shaklga ega emasligi bilan xarakterlanishi bayon qilinadi.

“At-tuhfa” asarida fe'l turkumiga ham keng o'rin berilgan. Fe'lning nisbat, bo'lishli-bo'lishsizlik, shaxs, mayl, zamon kategoriyalari atroflicha yoritilgan.

Asarda yordamchi so'zlar haqida ma'lumot berilgan. Turkiy tilda va bog'lovchisi kabi bir so'z yo'qligi, lekin *dag'i, taqi, yo'qsa, yo'q, ya, ammo* kabi so'zlar bog'lovchi bo'lib xizmat qilishini ta'kidlaydi.

“At-tuhfa” asarida gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari, xususan, so'roq gaplar va so'roqni ifodalash yo'llari, gap bo'laklarining tartibi haqida ma'lumot beriladi.

Xullas, kitobning grammatika qismi qipchoq tili strukturasi to'g'risida tugal tasavvur hosil qiladi.

Asarda bayon qilingan ko'pgina fikrlar hozirgi turkiyshunoslik uchun ham o'z qimmatini yo'qotgani yo'q. Shu bilan birga turkiy tillarning tarixiy grammatikasini yaratishda bu asar qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi.

Tayanch tushunchalar:

“At-tuhfa”, B.Atalay, S.Mutallibov, ma'rifa va nakra, “alam” atamasi, otlarning kichraytirish shakllari, undov so'zlar, majhul (“ismi maf'ul”), birgalik, orttirma, o'zlik nisbatlari.

Savol va topshiriqlar:

1. “Kitob at-tuhfa” asarida qanday masalalar yoritilgan?
2. Asarda mentalingvistika haqida qanday qarashlar bayon qilingan?
3. Asarda tovushlar to'g'risida qanday fikrlar aytilgan?
4. Ot va uning grammatik xususiyatlari haqidagi fikrlarni hozirgi o'zbek adabiy tiliga qiyoslab aytib bering.
5. Fe'l haqida qanday fikrlar bayon qilingan?
6. Asarda sintaksis haqida qanday fikrlar berilgan?

4-Mavzu: Temuriylar davrida tilshunosligi

Reja:

1. Alisher Navoiy va o'zbek adabiy tili.
2. Alisher Navoiy – chog'ishtirma (konstrastiv) tilshunoslikning asoschisi.
3. “Muhokamatul-lug'atayn” asarining yaratilishi tarixi.
4. Alisher Navoiyning lingvistik qarashlari.
5. Z.M.Boburning lingvistik qarashlari.

Buyuk mutaffakir shoir Alisher Navoiy uch til (fors, arab, turkiy til) o'zaro kurashayotgan bir paytda o'z asarlarini o'zbek tilini boy xazinasidan foydalangan holda yozdi. U “Xazoyinul-maoniy”, “Xamsa”, “Lisonut-tayr” kabi badiiy adabiyot namunalarini, “Majolisun-nafois”, “Mezonul-avzon” kabi adabiyotshunoslikka oid

asarlarini, “Muhokamatul-lug`atayn” kabi tilshunoslikka doir asarlarini shu tilda yaratdi. Bu bilan o`zbek tilining badiiy, ilmiy asarlar yaratish uchun boy imkoniyatlarga ega ekanligini amalda ham nazariy, ham amaliy jihatdan isbotladi.

Alisher Navoiy lug`atchilik va grammatika sohasidagi yarim asarlik tajribasini “Muhokamatul-lug`atayn” asarida umumlashtirdi. Bu asarda Navoiy eski o`zbek tili bilan fors-tojik tilini bir-biriga chog`ishtirdi va noqardosh tillarni qiyosiy o`rganish metodini boshlab berdi.

Alisher Navoiy tillarni qiyoslab o`rganish bilan birga, asarda umumiy tilshunoslikka doir fikrlarni ham olg`a suradi. Asarda til va tafakkur, tillarning kelib chiqishi haqidagi fikrlarni olg`a suradi.

Tilshunoslarning til tarixini o`rganib, qiyoslashdagi asosiy qurol-chog`ishtirishdir.

Ilmiy adabiyotlarning barchasida chog`ishtirma tilshunoslik faniga XIX asr boshida kirib kelganligi ta`kidlanadi hamda bu fanning asoschilari sifatida F.Bopp, R.Rask, Ya.Grimm va A.X.Vostokovlar nomi ko`rsatiladi. Lekin bu o`rinda sharq tilshunosligi hisobga olinmagan, chunki chog`ishtirma usul fanga XIX asrda kirib kelgan bo`lsa ham, bu usuldan birinchi bo`lib qarindosh bo`lgan turkiy tillarning tavsifi bo`yicha XI asarda yashagan olim Mahmud Koshg`ariy foydalangan. Turkolog olimlardan biri N.A.Baskakov u haqda: “Turkiy tillarni qiyosiy-tarixiy usul bilan o`rganishda Mahmud Koshg`ariy eng birinchi boshlovchi kashshof bo`ldi”¹-deydi. Chunki Mahmud Koshg`ariy o`zining “Devonu lug`otit turk” asarida bir xil oilaga kiruvchi turkiy tillarni shevalararo qiyosiy-tarixiy chog`ishtirish usulidan foydalanib, qiyoslaydi.

Yevropada esa qarindosh tillarning o`zaro aloqasi haqidagi birinchi asar 1538 yilda fransuz gumanisti Gvilelma Postellusa tomonidan yaratildi. Bu asar “Tillarning qarindoshligi” nomlanib, asarda qarindosh tillarni tasniflashga harakat qilingan.

Alisher Navoiy esa dunyoda birinchi bo`lib “Muhokamatul-lug`atayn” asari bilan 1499 yilda qarindosh bo`lmagan, ya`ni turli til oilasiga mansub tillarni muqoyasa qiladi. U turkiy tillar oilasiga kiruvchi turkiy- eski o`zbek tilini hind-yevropa tillar oilasiga kiruvchi fors tilini qiyoslaydi.

Yevropa dunyosida bunday asar Navoiy asaridan 100 yil o`tgach, 1599 yilda golland olimi Iosif Yustus Skaliger tomonidan yaratilgan. Asar “Ovrupaliklar tili haqida mulohaza yuritish” deb nomlangan bo`lib, unda Yevropadagi barcha tillarni tasnif qilishga urinib ko`rilgan, olim ularni 11 asosiy guruhlar – til oilalariga bo`ladi, ya`ni 4 katta va 7 kichik guruhlariga ajratib tasniflaydi.

Navoiyning “Muhokamatul-lug`atayn” asarida olg`a surgan va turkologiya tarixi uchun qimmatli bo`lgan fikrlari quyidagilar:

1. O`zbek tilini fors-tojik tili bilan chog`ishtirib, uning fors tilidan qolishmasligini ko`rsatib, o`zbek tilida asarlar yozishga yozuvchilarning da`vat qildi.

Alisher Navoiyning “Muhokamatul-lug`atayn” asarining maydonga kelishi bilan dunyo tilshunosligida yangi sahifa ochildi. Tilshunoslikning bugungi kunda chog`ishtirma (konstrativ) lingvistika deb ataluvchi yangi bir yo`nalishga asos soldi.

¹Baskakov N.A.Vvedeniye v izucheniya tyurkskix yazikov. M., S.40.

Chog`ishtirma tilshunoslikning o`ziga xos xususiyati shundaki, 2 tizimga mansub bo`lgan tillarning barcha sathlari bo`yicha bir-biriga solishtiriladi. Ularning o`ziga xos xususiyatlari ochib beriladi.

2. Asarda o`zbek tilining tarixiy fonetikasiga doir fikrlar ham mavjud. Navoiy tovushlarning artikulyatsion-funksional tomoniga katta e`tibor beradi va belgiga ko`ra tovush tipini-fonemani belgilaydi. Fonema va harf munosabatiga e`tiborni jalb qiladi. Ular bir-biriga doimo ham mos kelavermasligini, bir harf bir necha fonemani ifodalashi mumkinligini bayon qiladi. M: “yoy” harfi 4 fonemani, “vov” harfi ham to`rt fonemani bildirishini aytadi. Navoiy bu haqda shunday yozadi: “Va ko`k lafzin ham necha ma`ni bilan iste`mol qilurlar. Bari ko`k – osmonni derlar, Yana ko`k ohangdur, Yana ko`k tegrada ko`klamdur, Yana ko`k qadog`ini ham derlar. Yana ko`k sabza va o`langni dog`i derlar”.

3. Navoiy 2 tilni qiyoslaganda o`zbek tili lug`at boyligining ustunligini ko`rsatdi. Navoiy turkiy va fors tillardagi so`zlarni bir-biriga taqqoslar ekan, ayrim so`zlarning turkiycha atamasi bo`lgani holda fors tilida shu tushunchani ifodalovchi so`z yo`q ekanligini ko`rsatadi. Masalan, yeyiladigan taom turkiy tilda *yegulik* deb ataladi, deydi Alisher Navoiy, lekin forslar yemakni ham, ichmakni ham *xo`rdani* so`zi bilan ifodalaydi. Alisher Navoiy davom etib yozadi: "Va uluq “qardosh va kichik qardoshni ikkalasin barodar derlar va turklar uluqni og`a va kichikni ini derlar. Va bular ulug`, kichik qiz qardoshni ham xohar derlar. Va bular ulug`ni egachi va kichikni singil derlar. Va, ular otaning og`a-inisin opag`a derlar. Va onaning og`a-inisin-tag`oyi derlar. Va alar hech qaysig`a ot ta`yin qilmaydurlar va arab tili bila em va xol derlar. Va ko`kaltoshni turkcha til bila derlar. Va atka va enagani ham bu til bila ayturlar”¹. Turkiy tilning so`z boyligi fors tilining so`z boyligindan kam emasligini namoyish qilish niyatida Alisher Navoiy asarda 100 fe`lni keltirib, ularni tahlil qiladi va o`zbek tilini xazina deb biladi. Navoiy fors tilida 100 fe`lning leksik-semantik parallellari yo`q ekanligini aytib, inson kechinmalarining nozik qirralarini ifodalashda ular yozuvchiga qanday imkoniyatlar berishini aniq misol orqali yoritib beradi.

4. Ikki tilni qiyoslar ekan, Navoiy o`zbek tilining so`z yasaliş borasida ustunliklarini ko`rsatadi. “Muhokamatul-lug`atayn”dan o`zbek tilida so`z yasaliş tarixi haqida qimmatli fikrlar olish mumkin. Ayniqsa, ot yasovchi *-chi*, *-vul* qo`shimchalari, fe`l yasovchi *-sh*, *-t*, *-l* qo`shimchalari haqidagi fikrlari diqqatga sazovordir.

5. Alisher Navoiy asarda o`zbek va fors-tojik tillarini chog`ishtirish jarayonida o`zbek tili tarixiy stilistikasiga xos xususiyatlarni ham bayon qiladi.

O`zbek tilining boy imkoniyatlaridan foydalanib, o`zining qaysi janr va uslubda asarlar yozganini alohida ta`kidlaydi.

Alisher Navoiyning bu asari o`zbek va fors-tojik tillarini, ularning lug`at tarkibini qiyoslashga bag`ishlangan birinchi filologik asar sifatida alohida ahamiyatga ega. Unda ko`tarilgan masalalarning ko`pi hali ham o`z ahamiyatini yo`qotgani yo`q.

Zahiriddin Muhammad Bobur tarixda shoh, davlat arbobi, ajoyib shoir, muarrix, geograf, etnograf, adabiyotshunos, islomshunos, harbshunos, musiqashunos sifatida nom qoldirgan.

¹ Alisher Navoiy. Tanlangan asarlar. 15tomlik. XIV tom, 1967, 114-115-betlar.

U tilshunoslikka oid maxsus asar yozmagan bo'lsa-da, biroq u o'zining qomusiy asari bo'lgan "Boburnoma" da tilshunoslikka doir bir qator qimmatli fikrlarni bayon qiladi.

U nutq madaniyatiga, nutqning sodda, ravon, tushunarli bo'lishiga alohida ahamiyat berdi. O'z ijodiy faoliyati davomida bunga amal qildi va boshqalarni ham bunga da'vat etdi.

Boburning nutq madaniyatiga alohida ahamiyat berishiga sabab shundaki, antik davrda ham, arab xalifaligida ham nutq madaniyatigak har qanday ziyoli kishining, ayniqsa, davlab arbobining egallashi kerak bo'lgan eng muhim san'at turi sifatida qaralgan, faqat shunday san'atni egallagan kishigina mohir davlat boshqaruvchisi bo'lishi mumkin, deb hisoblangan.

Shuning uchun u o'z farzandlarining ham bu san'atni egallashini eng muhim vazifa deb bilgan. Faqat og'zaki nutqning emas, balki yozma nutqning ham sodda, ravon va savodli bo'lishiga erishish har bir ziyolining vazifasi hisoblangan.

Boburning o'g'li Humayunga yozgan maktubi fikrimizning dalilidir: «Xatingni xud tashvish bilan o'qusa bo'latur, vale asru mug'lakdur (juda chalkashdir). Nasri muammo hech kishi ko'rgan emas. Imlong yomon emas, agarchi xili rost emas. Iltifotni to bilan bitibsen, qulunjni yo bila bitibsen. Xatingni xud har tavr qilib o'qusa bo'latur, vale bu mug'laq alfozingdin (chilkash so'zlar) maqsad tamom mahum bo'lmaydur (tushunmaydi). G'olibo xat bitarda kohilliging (bo'shliging) ham Ushbu jihattindir. Takalluf (hashamat, bezak) qilay deysan, ul jihatdin mug'daq bo'latur, mundin nari betakalluf va ravshan va pok alfoz (til) bila biti. Ham senga tashvish ozroq bo'lur va ham o'qig'uvchig'a» (BN-65).

Bobur o'z asarida bir qancha so'zlarning etimologiyasi haqida ham fikr yuritadi. Masalan, *Savolak parbat* (Himalay tog'i) etimologiyasi haqida shunday yozadi: "Bu tog'ni Hind eli Savolak parbat derlar. Hind tili bila «Savo» - rub (chorak), "lak" - yuz ming, "parbat"- tog', ya'ni rub' va yuz ming tog'kim, yuz yigirma besh ming tog' bo'lg'ay» (BN-343). "Ho'jand bila Kandibodom orasida bir dasht tushubtur, Hodarveshg'a mavsumdur. ... Derlarkim, bir necha darvesh bu bodiyada tund yelga yo'luqub, bir-birini topolmay, "Ho, darvesh", "Ho, darvesh", dey-dey halok bo'lubturlar, andin bu bodiyani Hodarvesh derlar".

Shuningdek, *Konibodom*, *Hodarvesh*, *Shahrisabz*, *Qarshi*, *Kashmir*, *Konigil*, *Masjidi mukatta'* singari joy nomlarining ham nomlanish sabablari haqida ma'lumot beriladi.

Asarda laqab va taxalluslarning etimologiyasi haqida ham so'z boradi. Bobur «Boburnoma'da so'zlarni ma'lum mazmuniy maydonga birlashtirgan holda izohlaydi va tezaurus lug'at tuzadi. Mazmuniy maydon nazariyasi asosida tuzilgan tezaurus lug'ati 1852 yilda Yevropada ingliz tilshunosi I.M.Roje tomonidan yaratilgan. Shuning uchun ham Yevropa tilshunoslari tezaurus lug'at tuzishning asoschisi qilib I.M.Roje ko'rsatadilar. Biroq bundan uch asr oldin Bobur "Boburnoma" asari orqali tezaurus lug'at tuzishning ajoyib namunasini ko'rsatdi.

Bobur Hindiston voqealari haqida fikr yuritar ekan, Hindistonning hayvon, parranda, o'simlik nomlari, fasl nomlari, o'lchov nomlarini batafsil izohlaydi. O'zni bilan boshqa tillarda ularning qanday nomlanishi haqida chog'ishtirma ma'lumot ham beradi.

Yuqoridagi fikrlardan anglash mumkinki, Bobur tilshunoslikning grafika, onomastika, etimologiya, leksikografiya sohalarining rivojiga munosib hissa qo'shgan tilshunos olim hamdir.

Tayanch tushunchalar:

Chog'ishtirma, konstrativ, til va nutq, til va tafakkur, tillarning paydo bo'lishi. Nutq madaniyati, etimologiya, onomastika, alternatsiya, korrespondensiya, hayvon nomlari, parranda nomlari, joy nomlari, Hodarvesh, Qarshi, Kashmir, Konibodom.

Savol va topshiriqlar:

1. Alisher Navoiy turkiy tilning shuhratini va mavqeini tiklash borasida qanday ishlarni amalga oshirdi?
2. "Muhokamatul-lug'atayn" asarining mavzu mundarijasida nimalar o'rin olgan?
3. Navoiyning til va tillarning paydo bo'lishi haqida qanday fikr bildiradi?
4. Bu masala yuzasidan fanda qanday fikrlar aytilgan?
5. Alisher Navoiy asarda so'z yasalihi haqida qanday fikrlarni bayon qilgan?
6. "Muhokamatul-lug'atayn" asari qanday ilmiy ahamiyatga ega?
7. Boburning nutq madaniyati haqidagi fikrlarini ayting.
8. Asarda *Lamg'on* toponimini ikki fonetik varianti izohlangan. Shu haqda gapiring.
9. Boburning notiqlik san'ati haqidagi qarashlarini aytib bering.
10. Bobur yozma nutq haqidagi qanday fikrlarni aytadi?

5 – Mavzu: O'rta asr o'zbek leksikografiyasi

Reja:

1. Lug'at maqollarini joylashtirish tamoyillari.
2. Mavzuiy lug'atlarning yaratilishi.
3. Lug'atlarda grammatik masalalar.

O'zbek tilshunosligi leksikografiya sohasida katta tarixga ega. O'rta asr o'zbek leksikografiyasi asosan izohli va tarjima lug'atlarni tashkil qiladi. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asari umumturkiy leksikografiyaning ilk namunasi hisoblansa, XIII-XIY asrlardan boshlab o'zbek leksikografiyasi undan oziqqlangang holda mustaqil ravishda rivojlandi. Ayniqsa, turkiycha-forscha, turkiycha-arabcha tarjima lug'atlar tuzishga e'tibor kuchaydi. Masalan, XIII-XIY asrlarda yaratilgan muallifi noma'lum bo'lgan "Tarjumoni turki va ajami va mug'uli va forsi", "Kitobi atg'tuhfa az-zaki-ya fi-l lug'at-it turkiya", Abu Hayyonning "Kitobi al-idrok li-lisan al-at-rak" lug'atlarini ko'rsatish mumkin.

Alisher Navoiy asarlari asosida tuzilgan bir qator lug'atlar yuzaga keldi. Jumladan, Toli Imon Xiraviyning "Badoyi al-lug'at", Mirza Mehdixonning "Sanloh", "Lug'ati atrakiya", Muhamad Rizo Xoksoning "Muntaxab al-lug'at" asari, muallifi noma'lum eski o'zbekcha "Abushqa" lug'atlarini misol qilish mumkin.

O'zbek leksikografiyasiga oid bunday lug'atlar avvalo Yevropa olimlarining diqqatini tortdi. Ular yuqoridagi lug'atlarning ko'pini nashr etdilar. Xususan,

“Abushqa” lug`ati G.Vamberi (1862), V.V.Velyaminov-Zernov (1869), “Badoyi al-lug`at” A.K.Borovkov (1961) tomondan nashr etildi. Buning natijasida jahon olimlarining diqqati o`zbek leksikografiyasi tarixiga jalb etildi.

Navoiy asarlari yuzasidan yaratilgan lug`atlar ichida “Sangloh” lug`at maqolalarini joylashtirishda izchil va puxta tamoyilga bo`ysunadi. “Sangloh”da lug`at maqolalari quyidagi sxema asosida joylashtiriladi.

1. Sarlavhaga chiqarilgan so`z.
2. Sarlavhaga chiqarilgan so`zning fonetik va orfografik izohi, undan hosil qilingan shakllar.
3. Sarlavhaga chiqarilgan so`z va undan hosil qilingan shakllarning grammatik tavsifi.
4. So`zning etimologiyasi.
5. Sarlavha so`z va undan hosil qilingan shakllarning semantik tahlili.
6. Sarlavha so`z va undan hosil qilingan shakllar sematik tavsifini tasdiqlovchi materiallar.
7. Sarlavha so`z va undan hosil qilingan shakllar-ma`nolarining rumiy (turk), arab, fors va boshqa tillarda ifodalanishi.
8. O`zidan oldingi mualliflar fikrlariga munosabat.
9. Ilovalar.

Alisher Navoiy asarlariga tuzilgan lug`atlarda ko`proq turkiy, eski o`zbek tilidagi so`zlar sarlavhaga chiqarilgan. Shu bilan birga o`sha davr uchun o`zlashib ketgan ayrim arabcha-forscha so`zlar, mo`g`ulcha so`zlar ham uchraydi. “Sangloh” lug`atida muallifning o`zi mo`g`ulcha deb belgilagan so`zlar yuztadan oshadi.

Grammatik nuqtai nazardan sarlavha so`zlar deyarli barcha so`z turkumlarini o`z ichiga oladi. “Sangloh” lug`atida fe`l so`z turkumiga oid so`zlar ko`proq sarlavha chiqarilgan.

Tilshunoslik tarixida ideografik lug`atlar yaratish alohida ahamiyatga ega. Borliq elementlari haqidagi ma`lum tushuncha qanday moddiy vositalar yordami bilan ifodalanishini ochib berish ideografik lug`atlarning asosiy maqsadi hisoblanadi. Bunday lug`atlarda «borliq+borliqning ongda aks etishi+nom» tamoyiliga bo`ysuniladi.

Bunday lug`atlar Sharqda ancha uzoq tarixga ega. O`zbek tilshunosligi tarixida Zahiriddin Muhammad Boburning “Voqenoma”sida ideografik lug`atning belgilari uchraydi. Muhammad Yoqub Chingiyning “Kelurnoma”si esa ideografik lug`at namunasi sanaladi.

O`zbek tilshunosligi tarixida grammatika masalalarini o`z ichiga olgan lug`atlar ham uchraydi. Ana shunday lug`atlardan biri Mirza Mehdixonning “Sangloh” lug`ati bo`lib, unda “Maboni ul-lug`at” (“Til asoslari”) nomli grammatik ocherk ham o`rin olgan. Unda Mirza Mehdixonning lingvistik qarashlari o`z aksini topgan.

Tayanch tushunchalar:

“Badoyi al-lug`at”, “Muntaxab al-lug`at”, “Abushqa”, “At-tuhfa”, tarjima lug`at, “Sangloh”, fonetik izoh, ideografik lug`at, “Kelurnoma”, mabna.

Savol va topshiriqlar:

1. Turkiy tillarga doir qanday lug`atlar mavjud?
2. Abu Hayyonning turkiy xalqlarning tarixi va tiliga bag`ishlangan lug`ati haqida nimalarni bilasiz?
3. Jamoliddin ibn Muxanna “Xiliat-ul-inson va xalibat ul-lison” lug`atida qanday masalalarga e`tibor qaratgan?
4. “Kitob at-tuhfa” lug`atida qanday masalalar yoritilgan?
5. Ideografik lug`at qanday tuziladi?
6. Ideografik lug`atlarga namunalar ayting?
7. “Sangloh” lug`ati haqida gapiring.
8. Lug`at maqolalarini joylashtirish tamoyillari qanday bo`ladi?
9. Alifbo va mazmuniy maydon asosida tuzilgan lug`atlar haqida gapiring.

6-Mavzu: **Xonliklar davrida tilshunoslik**

Reja:

1. Xonliklar davri tilshunosligi.
2. Abulg`oziy Bahodirxonning “Shajarai turk”, “Shajarai tarokima” asari.
3. Asarda onomastik nomlarni berilishi.

Xonliklar davrida tilshunoslikka oid maxsus asarlar yozilmagan bo`lsa ham, tarix, falsafa, adabiyotga doir asarlarda tilshunoslikning ayrim masalalariga tegishli fikrlar uchraydi. Shunday asarlardan biri Abulg`oziy Bahodirxonning «Shajarai turk» va «Shajarai tarokima» asarlaridir.

Abulg`oziy Bahodirxondan ikki tarixiy asar qoldi. «Shajarayi tarokima (1658-1661 y. orasida yozilgan deb taxmin qilinadi) atalib, turkiy qabilalarning, xususan turkman xalqining kelib chiqishi haqida qimmatli ma`lumot beradi. Asarda barcha turklarning afsonaviy podshosi O`g`uzxon va uning avlodi tarixi, shuningdek, turkman urug`lari (solar, boyandur, taka, yovmut, tevachi, xizr eli, sariq, Ali Eli, yozir, ersori va boshqalar)ning kelib chiqishi qisqa tarzda bayon etilgan. “Shajarayi tarokima” Abulg`oziyning o`z so`zlariga qaraganda, turkman mullalari, shayxlari va beklarining iltimosi bilan yozilgan. Ushbu asarning tanqidiy matni, ruscha tarjimasini katta ilmiy tadqiqot bilan qo`shib, 1958 yili akademik A.N.Kononov(1906-1986) tarafidan Leningradida chop etilgan. Abulg`ozixonning ikkinchi asari «Shajarayi turk» nomi bilan mashhur. Asarning asosiy qismi 1963-1964 yillarda yozilgan. Unda Xorazmning XVI-XVII asrning birinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy tarixi bayon etiladi.

Asar qisqa muqaddima va to`qqiz bobdan iborat. Abulg`oziy asarning 7, 8 va 9-bobining bir qismini (1644 y. gacha kechgan voqealar tarixini yozib ulgurgan. 1-6 boblar va 9-bobning davomi (1644-1664 yil voqelari) Anushaxonning topshirig`i bilan Mahmud ibn mulla Muhammad Urganjiy degan ulamo tarafidan yozilgan.

Abulg`oziy Bahodirxonning tilga bo`lgan munosabati yuqoridagi ikki asarda o`z ifodasini topadi.

Abulg`oziy Bahodirxon har ikki asarda onomastik (antroponimik, toponimik, etnografik) ma'lumotlar berayotgan paytda, albatta, uning etimologiyasi haqida so'z yuritadi. Masalan, "Shajarai turk" asarining birinchi bobida Kirayt elining zikrida *kirayt* so'zining etimologiyasi haqida shunday yozadi: «Kiraytning ma'nosi qoraburan temak bo'lur. Bir kishining yetti o'g'li bor erdi. Yettisi ham qora. Onlarga xalq kiroytlar derlar. Shundan tuqg'anlarig'a kiraytlar tedilar».

Abulg`oziy Bahodirxon u yoki bu so'zning kelib chiqishi haqida fikr yuritar ekan, uni boshqa tillarga ham qiyoslaydi. Masalan, *Muran* gidronimi haqida shunday yozadi: «Oqib boraturg'an ulug' suvni turkiy tilida *soy* der. Tojik kechkindur va uluqin *rudxona* der va arab *vodiy* der. Mo'g'ul *muran* der». Muallif u yoki bu so'zlarning ma'nosini yoritishda mug'ul, xitoy tillari materiallariga izchillik bilan qiyoslaydi. Bu esa, uning solishtirayotgan tillarni ham chuqur o'rgangan poliglot olim ekanligidan dalolatdir.

Muallif ma'lum laqab bilan izohlanuvchi atoqli otlar haqidla fikr yuritar ekan, bunday laqablarning etimologiyasi to'g'risida ham qiziqarli ma'lumot beradi. Masalan, «Shajarai turk» asarining "Qo'niqqimar elining zikrida shunday yozadi: "Qo'niqning ma'nosi ulug' temak bo'lur. Bu vaqtda ham ulug' qarg'ani qo'niq qarg'a derlar. Qimarning ma'nosi burun temak bo'lur. Ul kishining burni bisyor ulug' erdi. Aning uchun Qo'niqqamar laqab qoldi". "Hukm etdi kim, bu kundan so'ng hech kishi muni Ilkxon temasun, Ilk turkman tesunlar teb. Andin so'ng o'zina Gurxon deb laqab qo'ydi. Gurning ma'nosi xitoy tilinda ulug' podshoh temak bo'lur".

Abulg`oziy Bahodirxon nutqning sofliigi uchun kurashdi, xalq bilan sodda tilda muloqot qilish lozimligini uqtirdi. Bu haqda «Shajarai tarokima» asarida quyidagilarni yozadi: "...Bas, turklarga turkona aytmak kerak, to ularning barchasi fahm qilg'aylar, bizning aytgan so'zimizni bilmasalar andin ne hosil?..."

Abulg`oziy Bahodirxon har ikki asarini omma tushunadigan qilib sodda tilda yozishga alohida e'tibor berdi. Muallif bu haqda "Shajarai tarokima" asarida shunday yozadi: "Hamma ulug'lar ham, oddiy kishilar tushunsin deb men bu tarixni turkiy til bilan aytdim. Turkiyni ham andoq aytubmankim, 5 yashar o'g'lon tushunur. Tushunish ason bolsun deb, men чыг'atay turkisindin forsicha va arabchadan bir dana ham so'z qoshmadym".

Muallif har ikki asarning boshida insonning paydo bo'lishi, insonning yaratilishi (va ayni paytda, tilning kelib chiqishi haqida ham) fikr yuritadi.

Abulg`oziy Bahodirxon "Shajarai turk" asarida Yofas avlodi bo'lgan Turk va uning shajarasi haqida batafsil ma'lumot beradi. "Shajarai tarokima" asarida esa, turk shajarasi tarkibiga kiruvchi O'g'uzxon shajarasi haqida so'z yuritadi.

Tayanch tushunchalar:

"Shajarayi turk", "Shajarayi turk", onomastik, etnonim, etimologiya, fonetik o'zgarish, tilning paydo bo'lishi, *ungut* atamasi, *muran* atamasi.

Savol va topshiriqlar:

1. Xonliklar davrida tilshunoslikka oid asarlar yaratilganmi? Ular haqida ma'lumot bering.

2. Abulg`oziy Bahodirxonning “Shajarai turk”, “Shajarai tarokima” asarlari nimaga bag`ishlangan.
3. “Shajarai turk”, “Shajarai tarokima” asarlarini nashri haqida nimalarni bilasiz?”.
4. “Shajari turk”da qanday onamastik ma’lumotlar berilgan?
5. Insonning paydo bo’lishi haqida A.Bahodirxon har ikki asarida qanday fikrlarni bildiradi?
6. “Qirayt” so’zining etnonimi haqida nimalarni bilasiz?

7–Mavzu: **Chorizm va sho’rolar davrida o’zbek tilshunosligi.**

Reja:

1. O’zbek ma’rifatparvarlarining lingvistik faoliyatlari.
2. Ilk o’zbek alifbolarining vujudga kelishi.
3. Ashurali Zohiriy- tilshunos.
4. Mahmudho’ja Behbudiy va Abdulla Avloniyning lingvistik qarashlari.
5. Abdurauf Fitratning lingvistik qarashlari.

XIX asr o’rtalarida Markaziy Osiyodagi xonliklar orasida o’zaro kurashlar kuchayib borar va rus imperiyasi bu kurashlardan josuslar orqali doimo xabardor bo’lib turardi. Nihoyat, Markaziy Osiyo yerlariga yurish boshlanib, 70-yillarda tamoman zabt etildi. Shunday qilib, Turkiston rus bosqini ostida qoldi. Bu davrda mahalliy aholini tutqinlikda tutishi uchun uning tilini bilish ehtiyoji tug`ildi. Ana shu ehtiyojni qondirish uchun bir qator asarlar maydonga keldi.

Ruslarning o’zbek tilini o’rganishga bo’lgan ehtiyojini qondirishda chor Rossiyasi tomondan Turkistonga maxsus yuborilgan N.Ostroumov, V.Nalivkin va M.Nalivkina, N.N.Pantusovlarning xizmati katta bo’ldi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyodagi vaziyat ziyolilar o’rtasida milliy o’z-o’zini anglash hissini kuchaytirib yubordi. XVI asrdan boshlangan madaniy, ma’naviy inqiroz tufayli unutilar darajaga kelib qolgan boy milliy merosimizni tiklash, o’tmiiy madaniyatga mehr-muhabbat hissini uyg`otish harakati boshlandi va bu harakatning natijasi sifatida jadidizm maydonga keldi.

Jadidlar taraqqiyotga erishishning bosh yo’l ma’rifat deb bildilar. Buning uchun yangi tipdagi maktablar ochish, dunyo yangiliklarini xalq o’rtasida targ`ib qilish matbuotning rivojlantirishga intildilar. Ularning ko’plari yangi maktablar uchun darsliklar ham yozdilar.

Xususan, Behbudiyning “Risolai asbobi savod”, “Risolai jo’g`rofiyai umroniy”, “Risolai jo’g`rofiyai Rusiy”, “Kitobat-ul atfol (1905), “Amaliyoti islom”, “Tarixi islom», Hamzaning “Qizil gul”, “Pushti gul”, Fitratning “Sarf”, “Nahv” singari asarlari ana shunday asarlardandir.

Matbuotning yo’lga qo’yilishi o’zbek adabiy tilining shakllanishi va rivojlanishi uchun ham qulay imkoniyat yaratdi. Ayniqsa, jadidlar til masalasiga alohida e’tibor bilan qaraydilar.

Jadidlarning til masalasiga alohida e'tibor berishlari bejiz emas edi. Chunki til millatning eng asosiy belgilaridan biridir. Shuning uchun ham: "Qachonki, bir millat tilini yo'qotsa, o'z dinini va millatini yo'qotur", deydi Ashurali Zohiriy. Behbudiy muharrirligidagi "Oyna" jurnali til masalasiga alohida e'tibor berdi. Bu davr matbuotida tilimizni ajnabiy so'zlardan imkon qadar tozalash, o'z tilimizni chuqur o'rganish va unga mehr-muhabbat bilan qarashga undash bilan birga boshqa tillarni ham, albatta, o'rganishga da'vat etiladi.

M.Behbudiy "Ikki emas, to'rt til lozim" maqolasida yoshlarni ko'p til bilishga, arab, fors, turk tilini bilish bilan birga, albatta, Ovrupo tillarini, xususan, rus tilini o'rganishga chaqiradi. Bu tillarni qancha puxta bilsak, ajdodlarimiz qoldirgan boy madaniy merosdan shunchalik foydalanish imkoniyatiga, bugungi dunyo fan va madaniyat yangiliklaridan shunchalik bahramand bo'lish imkoniyatiga ega bo'lishimiz bayon qilinadi.

XX asr boshlarida jadidlar tomonidan yangi tipdagi maktablarning ochilishi va unda o'qitishning yangi-yangi usullarining qo'llanilishi tufayli bolalarning xat-savodini tez chiqarishni ta'minlaydigan yangi darsliklarga ehtiyoj tug'ildi. Saidrasul Saidazizov 1902 yilda "Ustodi avval" kitobi, Munavvarqori Abdurashidxonov esa 1907 yilda "Adabi avval" kitoblarini Toshkentda nashr ettirdilar.

Saidrasul Saidazizovning "Ustodi avval" asari uch qismdan iborat. Birinchi qismi alifbo davrini o'z ichiga oladi. Bu qism bolalarga arab grafikasi asosidagi o'zbek alifbosini o'zbek alifbosini o'rgatishga bag'ishlanadi. Mavjud 32 ta harfning har qaysisi alohida sarlavha asosida beriladi.

Bu harflarning alohida, so'z boshida, so'z o'rtasida va so'z oxirida yozilish shakllari ko'rsatiladi. Har qaysi shakl ostiga shu shakl qatnashgan so'z keltiriladi. Undan so'ng har qaysi harfni o'zlashtirish uchun so'z ichida ishlatilishiga qator misollar beriladi. 32 ta harf bilan birga, sokin, pesh, tashdid singari harakatlarning qo'yilish o'rinlari, vazifalari o'rgatiladi.

Ikkinchi qismi esa alifbodan keyingi davrga bag'ishlanadi. Bu qismda alifbo bilan tanishib bo'lgan o'quvchida o'qish yozish ko'nikmasini shakllantirishga e'tibor qaratiladi.

"Ustodi avval"ning uchinchi qismi "Alifboi Qur'oniy"ga bag'ishlangan. Unda muallif o'quvchilarni Qur'on matnlarini qanday o'qishga tayyorlashni maqsad qilib qo'yadi.

20-30-yillar tilshunosligini eng faol vakillaridan biri Ashurali Zohiriydir. Uning o'zbek tilshunosligi oldidagi eng muhim xizmati shundaki, u birinchi bo'lib o'zbek tilidan darslik, o'zbek orfografiyasi va imlo qoidalariga bag'ishlab ilmiy asarlar yozdi.

U qator tilga oid maqolalarida o'zbek tilining lingvistik xususiyatlarini, o'zbek tilning kelajagi, taqdiri va taraqqiyotini ilmiy jihatdan tahlil qilib berdi. O'zbek orfografiyasi, yozuv tarixi muammolari, atamashunoslik muammolariga bag'ishlangan anjumanlarda faol ishtirok etadi. U sof o'zbek tilining taraqqiyoti uchun kurashdi.

"Qizil O'zbekistn" gazetasining 1929 yil 29 mart sonida mubohasa tariqasida "Til, atama va imlo masalasi" maqolasida adabiy til va jonli so'zlashuv tili, ular

o'rtasidagi munosabat, adabiy tilning tayanch shevalari, atamalarining ahvoli va bundan keyingi istiqbollari, imlo muammolari haqida fikr yuritadi.

Ashurali Zohiriy adabiy til bilan jonli so'zlashuv tilini bir-biridan farqlar ekan, adabiy tilning barqaror, jonli tilning esa, aksincha, tez o'zgaruvchanlik xususiyatiga ega bo'lishini ko'rsatadi. "Jonli til" deyilishining sababi ham "tez sur'at bilan o'zgarishi"da ekanligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, adabiy til muayyan qoidalarga, me'yorlarga bo'ysunishi, jonli tilning esa erkinligiga ishora qilinadi.

Ashurali Zohiriy o'zbek tilining o'z ichki imkoniyatlari asosida atamalar tizimini yaratish tarafdori bo'ladi. Uning fikricha, "agar ajnabiy so'zlar olinavursa, tilda soflik bitta-bitta, sal yilning ichida boshqa boshqa so'zlar u tilni qoplab, tanimaslik holiga keltiradi va yutadi". Shuning uchun ham turmushga kirib kelayotgan yangi tushunchalarni ifodalamoq uchun "o'z tilimizning boyligidan foydalanmoq"ni tavsiya etadi. "Agar bundoq so'zlar u tilda topilmasa, ovrupocha, arabcha, forsiychadan olmoq" lozimligini uqtiradi.

Imlo masalasi Ashurali Zohiriyning tilshunoslik faoliyatida markaziy o'rinni egallaydi. U rus tilshunos olimi Afanasevning orfografiyaning besh tamoyili (asosi) mavjudligi haqidagi fikrini ma'qullaydi: 1) savtiy (fonetik), 2) shakliy (morfologik), 3) tarixiy-an'anaviy, 4) chet so'zlarni yozmoq asosi, 5) ayrilma asos.

Ashurali Zohiriyning o'zbek tili fonetikasiga oid maqolalari alohida ahamiyatga ega. Uning "Qizil O'zbekiston" gazetasining 1929 yil 31 mart sonida "Til, atama va imlo bahslari" rubrikasida e'lon qilingan maqolasida "Lab ohangi to'g'risida», "Cho'zg'ilar to'g'risida", "Singarmonizm to'g'risida», "Bosh harf to'g'risida" bahs yuritiladi. U o'zbek tilida ham singarmonizm mavjudligini ta'kidlaydi. Lab ohangi garchi qirg'iz tili darajasida bo'lmasa ham, ma'lum darajada borligi, lekin uning qo'shimchalarga ta'sir qilmasligi, ana shu belgini ayrim omofonlarni yozishda farqlovchi belgi qilish lozimligini ko'rsatadi. Masalan, *urush* (*ot, yasama ot*) – *urish* (*fe'l*), *o'rum* (*birinchi o'rum beda*) – *o'rim* (*xandagim*) kabi.

Ashurali Zohiriy o'zbek adabiy tilida emas, to'qqizta unli mavjudligini, lotin alifbosida ham ana shu to'qqizta unli uchun harf olinishi kerakligini aytadi. Garchi muallif bu fikrini dalillar asosida isbotlamasa ham, Farg'ona (Andijon, Marg'ilon, Qo'qon kabi) shevalarida ma'no farqlash uchun xizmat qiladigan 9 ta fonema mavjudligini his qiladi.

Ashurali Zohiriy arab, fors, rus tillarini mukammal bilgan. U tarjima lug'atlar yaratishda ham samarali ishlar qildi. 1920 yili Qozonning "Asr" bosmaxonasida nashr etilgan va turkiy xalqlar tomonidan ijobiy baho olgan Sulton Rahimquli va Abdurahmon Karamning «Ruscha-tatarcha mukammal lug'at» nomli lug'atidagi tatarcha so'zlarni o'zbek tiliga o'giradi. 1927 yilda nashr etilgan ikki jildlik mazkur lug'atda muallif tilshunoslikka oid an'anaviy arabcha terminlarni qo'llash bilan birga, ayrim o'rinlarda o'zbekcha lingvistik atamalarni ham qo'llaydi. Masalan, *винительный падеж* – tushum tamomligi, *дателный падеж*-jo'nalish tamomligi kabi. U ortiqcha so'zlardan *voz* kechib, uni o'zbek tiliga juda ixcham va aniq qilib o'giradi. *Podat* so'zining tatar tilida *solim, to'lov, juzya, nolug, imona* kabi so'zlar bilan berilsa, Ashurali Zohiriy uni ixcham tarzda *solliq, o'lpon* holida beradi.

Mahmudxo'ja Behbudiy XX asr boshida o'zbek xalqi ijtimoiy tafakkurida yangi sahifa ochgan, yangi yo'nalishni boshlab bergan ziyolidir. M.Behbudiy

dunyoqarashining shakllanishida jadidchilik harakatining asoschisi Ismoilbek G`aspiralining xizmati katta bo`lgan. I.G`aspiralining maqsadi musulmonlarning o`zligini saqlab qolish yo`li bitta, u ham bo`lsa ma`rifat va u orqali mamlakatning ijtimoiy, siyosiy, madaniy hayotiga tengma-teng aralashishga erishmoqdir, degan fikrni ilgari suradi. Behbudiy bu fikrga qo`shilgan holda I.G`aspiralining izchil targ`ibotchilaridan biriga aylandi.

1913 yildan Behbudiy matbuot ishlari bilan shug`ullanadi. Shu yilning aprel oyidan "Samarqand" gazetasini chiqaradi. Gazeta ikki tilda turkiy va forsiy tillarda chop etiladi. 45 ta sonidan so`ng moddiy tanqislik tufayli chiqish to`xtagan. 1913 yilning 20 avgustidan Behbudiy "Oyna" jurnalini chiqara boshlaydi. Mazkur jurnal ma`rifat va madaniyat tarqqatishda juda katta xizmat qiladi. Unda millat va uning haq-xuquqiga, tarixiga, til-adabiyot masalalariga, dunyo ahvoriga doir qiziqarli maqolalar, bahslar berib borilgan. Ayniqsa, til masalasi muharrirning hamisha diqqat markazida bo`lgan. Shuning uchun ham jurnal sahifalarida o`sha davrning eng dolzarb masalasi aylangan til masalasiga bag`ishlangan maqolalar tez-tez bosilib turardi. Behbudiyning o`zi ham bu masalaga bag`ishlangan bir qator maqolalar yozadi. Uning «Ikki emas, to`rt til lozim», "Til masalasi", "Sart so`z majhuldur", "Sart so`zi ma`lum bo`lmadi" singari bir qator maqolalarida o`zining tilshunoslikka doir qarashlarini bayon qiladi.

Behbudiyning o`zi arab, fors tillarini mukammal bilgan, rus tilini tushungan, gaplasha olgan. "Oyna" jurnalini to`rt tilda - turkiy, forsiy, arabiy va rus tillarda chiqarmoqchi bo`lgan. Jurnalning 1913 yil 20 avgust birinchi sonidayoq "Ikki emas, to`rt til lozim" nomli maqolasi bosiladi. Maqolada til bilishning xosiyati haqida ibratomuz fikrlar bildirib shunday yozadi: "Arabiy til din uchun ne darajada lozim bo`lsa, rusiy ham tiriklik va dunyo uchun lozimdur. Arabiy bilmasang din, ruscha bilmasang, dunyo qo`ldan ketar".

"Til masalasi" maqolasida usmonli tilining jonli turk tilidan uzilib qolganligini, oddiy xalq bu tilda yozilgan asarlarni tushunmasligini bayon qiladi.

Behbudiy adabiy til bilan jonli so`zlashuv tilini bir-biridan farqlaydi va adabiy til bilan jonli so`zlashuv tili o`rtasidagi bog`lanish darajasi turlicha bo`lishi mumkinligini anglaydi. Usmonli turk tili bilan turk so`zlashuv tili o`rtasida katta uzilish borligini aytadi.

Behbudiy islom aqidalarini qattiq hurmat qilgan holda, dunyoviy fanlarsiz millatning taraqqiy etishi va kamol topishi mumkin emasligini qayta-qayta ta`kidladilar. "Ehtiyoji millat" maqolasida shunday yozadi: "Boshqa millatlarga qaralsa, ko`ra olurg`a, muntazam maktablari bor va ul maktablarda diniy ilm ustinda dunyoviy ilm va fanlar ham o`qilur. Chunki dunyoga turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur. Zamona ilm-fandan bebahra millat boshqa millatlarga paymol bo`lur".

M.Behbudiy o`z davrining keng fikrli kishisi, millat istiqboli uchun otashin kurashchi sifatida milliy tilning ravnaqi, uning istiqboli uchun ham jon kuydirdi va o`zi nashr etgan "Oyna" jurnali orqali o`zbek adabiy tilining muhim masalalarini yoritdi.

Maktab va maorif orqali o`zbek xalqining milliy-ijtimoiy ongini uyg`otishni o`zining bosh maqsadi deb bilgan Abdulla Avloniy boshqa maslakdoshlari kabi, faoliyatini ma`rifat sohasidagi ishlardan boshladi. XX asr boshlaridagi

ma'rifatparvarlik haraktida Abdulla Avloniy o'rni alohida ajralib turadi. Abdulla Avloniy o'zbek ziyolilari orasida birinchi professor ilmiy unvonga ega bo'lganlardan biri. U o'zining pedagogik ijodiy va ijtimoiy faoliyati bilan xalqimizning madaniy saviyasini bir pog'ona yuksaklikka ko'tarishga munosib hissa qo'shdi.

Abdulla Avloniyning tilshunoslik haqidagi qarashlari ko'proq 1913 yilda yuqori sinf o'quvchilari uchun mo'ljallab yozilgan "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida o'z ifodasini topgan. Abdulla Avloniy har qanday millatning millat sifatidagi muhim belgilaridan biri uning tili ekanligi, shuning uchun ham tilga e'tibor millatga bo'lgan e'tibor ekanligini alohida ta'kidlab, bu haqda shunday yozadi: "Har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadurg'on oynai hayoti tili va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millat ruhini yo'qotmakdur".

Har bir miilat o'z tiliga e'tibor bilan qaramog'i, uning istiqboli uchun qayg'urmog'i lozimligini bayon qilib, o'zbek tilining arabiy, forsiy unsurlar bilan to'lib-toshib ketganligi, shuning uchun bu tilni o'z ichki imkoniyatlari asosida rivojlantirish, xalq tiliga yaqinlashtirish zarurligi ko'rsatiladi.

Abdulla Avloniy yoshlarni o'z tiliga hurmat va muhabbat qo'yish, uni chuqur o'rganish bilan birga, boshqa tillarni bilishga ham da'vat etadi. Shuningdek, u kishilarning aloqa vositasi bo'lgan tilga qanchalik e'tibor lozim bo'lsa, bu tildan foydalanayotgan shaxslar tiliga (nutqiga) ham shunchalik e'tibor kerakligini ta'kidlaydi. "Chunki so'z insonning daraja va kamolini, ilm-fazlini o'lchab ko'rsatadurg'on tarozusidir. Aql sohiblari kishining dilidagi fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qiymatini so'zlagan so'zidan bilurlar».

Shuning uchun ham Abdulla Avloniy yoshlarni so'zdan o'rinli foydalanishga, so'z qadriga yetishga da'vat etadi. Muallif so'z qudratiga ham yuksak baho beradi. So'z – noyob gavhardir. Uning sharafi benihoya. Har qanday qimmatbaho gavhar uning oldida sadaf ham bo'la olmaydi. Tilni po'lat xanjarga, so'zni esa unga qadalgan bezaklarga qiyos qiladi.

Abdulla Avloniyning til va so'z odobi haqidagi umuminsoniy fikrlari bugungi kunda ham o'z qimmatini yo'qotgan emas.

Fitrat XX asr o'zbek madaniyati tarixidagi yorqin siymolardan biridir. Fitrat - uning adabiy taxallusi. Fitrat so'zining lug'aviy ma'nosi Navoiy asarlari lug'atida «tabiat, tug'ma tabiat, yaratilish» ma'nolari izohlangan.

Fitrat tilshunos sifatida tilning barcha bo'limlari haqida o'z munosabatlarini bayon etadi. U o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga, o'zbek tilining turkiy tillar tizimidagi o'rnini belgilab berishga harakat qiladi.

Adabiy tilning boyishida asosiy manba bo'lib xizmat qiladigan xalq shevalariga diqqatni ko'proq jalb qilish kerakligini alohida uqtiradi. Adabiy tilning shakllantirishda shahar shevalariga emas, balki qishloq shevalariga tayanish kerak ekanligini ta'kilaydilar. Bu haqda Fitrat «Sarf» kitobida shunday yozadi: "Bilamizki, bizning shaharlarimiz yuzlab yillardan beri arab, forsiy adabiyotning hukmi ostida yashaydi, shuning uchun bizda shahar tili buzulg'ondur. Tilimizning sof shaklini daladagi el-aymoqlarimizda ko'ra olamiz". Bu bilan singlarmonizmli shevalar o'zbek adabiy tilining tayanch shevalari bo'lishi kerak degan fikrni ilgari suradi. Fitratning o'zbek tilining turli masalalariga bag'ishlangan asari "O'zbek tili qoidalari

to'g'risida bir tajriba" deb nomlanadi. Bu asar o'zbek tilining fonetikasi, morfologiyasi va sintaksisini izchil ravishda berilgan birinchi grammatikadir.

Fitratning fonetik qarashlari o'zbek imlosiga bag'ishlangan bir qator maqolalarida va «O'zbek tili qoidalari to'g'risida bir tajriba. Sarf» asarida o'z aksini topgan. Unlilarni ikkiga bo'ladi. Sof undan iborat bo'lgan fonemalar unlilar, ovozga ega bo'lmagan fonemalarni unsizlarga bo'ladi. O'zbek adabiy tilida 23 ta unsiz fonema mavjudligini ko'rsatib, ulardan *x*, *h*, *f* fonemalari asl turkcha so'zlarda kam uchrashini ta'kidlaydi. Fitrat o'zbek tilida mavjud bo'lgan singarmonizm qonuniyatini aks ettirishini, bu holat esa shahar shevalarida fors tilining ta'sirida bo'lganini, shuning uchun ham umumturkiy fonetik xususiyatni ko'proq saqlab qolgan qishloq shevalariga tayanish kerakligini alohida uqtiradi. Ana shu asosda unlilarni ikkiga yo'g'onlik va ingichkalik belgisi bilan belgilaydi.

yo'g'on (orqa qator)	ingichka (oldi qator)
a, o', u, i	e, o, y, i

Yo'g'onlik-ingichkalik belgisiga ko'ra farqlanishga ega bo'lmagan "e" unlisi ham mavjud ekanligi, jami 9 ta unli fonema borligini ko'rsatadi.

Fitrat "Sarf" asarida so'z turkumlari haqida ma'lumot beradi. So'z turkumlarini 4 ga bo'ladi. Ot, sifat, fe'l, ko'makchi. Asarda olmosh, son haqida ham so'z yuritadi, biroq ularni alohida so'z turkumi sifatida ajratmaydi.

Otlarni tub va yasama otlarga bo'ladi. Yasama otlarni o'run oti, qurol oti, ish oti, kichiklagan ot, qo'shma otlar kabi mayda bo'laklarga bo'lib, ularga alohida-alohida izoh beradi. Masalan, ish oti atamasi hozirgi tilshunoslikdagi funksional fe'l shakllaridan harakat nomiga to'g'ri keladi. Ular quyidagi qo'shimchalar orqali yasalishini ko'rsatadi: *-moq*, *-ish*, (*bilish*), *-im*, *-uv*, *-nch* (*ishonch*) kabi.

Sifatni ham ikkiga bo'ladi. Tub va yasama sifatlarga *-li*, *-siz*, *-gi*, *-ki*, *-g'i*, *-imtil*, *-ma*, *-lik*.

Yasama sifatlarni ma'nosiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- 1) nisbat sifati – *g'iy*, *-viy*.
- 2) o'rtoqlik sifati *-dosh/dash*
- 3) jins sifati *kumush qoshiq, oltin uzuk*.
- 4) o'xshatish sifati *kabi, o'xshash, -dek/day, yanglig', singari*

Sonlarni alohida so'z turkumi sifatida bermaydi. Sifat tarkibida aytib o'tadi.

Yasama sonlar ma'nosi va yasovchi qo'shimchalariga ko'ra: sira son: – *i(nchi)*, ulush son (*-ar*), (*-tadan*), chama son (*-lab*), sanalmishsiz son (*-ov*), o'rtoqlik son (*-ala*), oshirma son (*-larcha*), o'lchov sonlari (numerativ) *qadaq*, *yutum* kabi.

Fitratning fikricha, "ot shrnida almashtirilib" qo'llaniladigan so'zlarga "ot olmoshlari" yoki "olmosh" deyiladi. Olmoshlar uch turga bo'linadi: 1) Ot olmoshlari *-u*, *men*, *sen*, *ular*, *biz-bizlar*, *siz-sizlar*.

2) Ko'rsatish olmoshlari – *bu-bul*, *shu-shul*, *bular-bunlar*, *shular*.

3) So'rash olmoshi – *kim*, *nima*, *qanday*, *nega*, *nuchuk*, *nechun* kabi.

Fe'l so'z turkumi ancha mukammal yozilgan. Fitrat fe'ning shaxs, son, bo'lishli-bo'lishsiz va zamon kategoriyalariga ega ekanligi haqida ma'lumot beradi.

Fitrat ko'makchi so'zlar haqida ham alohida to'xtaladi. Hozirgi tilshunoslikda yuklama, bog'lovchi, ko'makchilar hamda modal, undov so'zlar tarkibida

o'rganilayotgan lisoniy birliklarning hammasi ko'makchi so'zlar atamasi ostida beriladi.

Fitratning sintaktik qarashlari uning «O'zbek tili qoidalari to'g'risida bir tajriba. Nahv» asarida o'z aksini topgan.

Bu asar haqida muallif: «O'zbek nahvi to'g'risida mening bir tajribamdir» – deb yozadi. Hali o'zbek tili sintaksisining mundarjasi belgilanmagan, sintaktik tushunchalarni ifodalovchi atamalar tizimi izga solinmagan bir davrda mazkur asarning vujudga kelishi o'zbek tilshunosligi tarixi uchun katta voqea edi. "Nahv" "butundan qismga" tamoyiliga amal qiladi. Shuning uchun ham sintaksisning asosiy o'rganish birligi bo'lgan gap haqida ma'lumot berishdan boshlanadi.¹

Gap haqida ma'lumot bergandan keyin, tinish belgilari to'g'risida ham so'z yuritadi. Muallif punktuatsion belgilarni «turush belgilar» atamasi bilan nomlaydi. Fitrat 12 ta tinish belgisi va ularning vazifalari haqida ma'lumot beradi.

Gap bo'laklari haqida gap ketganda, Fitrat ega va kesimni bosh so'zlar tarkibiga kiritadi. Bosh so'zlardan boshqa barcha bo'laklarni "to'ldirg'ichlar" atamasi bilan nomlaydi.

To'ldirg'ichlar quyidagi turlarga bo'linadi: 1) tushum, 2) borish, 3) chiqish, 4) o'run, 5) birgalik, 6) chog', 7) nechunlilik, 8) nechuklik to'ldiruvchilari. Asarda to'ldirg'ichlarning har bir haqida alohida-alohida to'xtalib o'tadi.

Fitrat kirish so'z, kirish gap va kiritmalar haqida ham ma'lumot beradi. Bu uch lingvistik hodisa bir termin – kirish so'z atamasi ostida o'rganiladi. U bu atamaning arablarning "mo'tariza", ruslarning "vvodnoye slovo" atamalariga teng kelishini ta'kidlaydi.

Kirish so'zlarning gapning boshqa qismlaridan yozuvda vergul bilan ajratilishi, kirish so'zlar gapdan tushirib qoldirilganda ham gapning ma'nosiga zarar yetmasligi haqida so'z yuritiladi.

Fitrat ko'rsatib o'tgan sintaksis haqidagi fikrlar bugungi kunda ham mavjudligini darsliklarda ko'rishimiz mumkin. O'zbek tili morfologiyasi va sintaksisining fan sifatida shakllanishida Fitratning xizmatlari katta. U birinchilardan bo'lib o'zbek tili morfologiyasi va sintaksisi haqida izchil ravishda ma'lumot berdi.

Tayanch tushunchalar:

V.Nalivkin, N.Ostroumov, "Chig'atoy gurungi", panturkizm harakati, adabiy tilni me'yorlashtirish, ajnabiy so'zlar, "Ustodi avval", ilk o'zbek alifbosi.

Ismoilbey G'aspirali, "Til masalasi", chig'atoy lahjasi, "Kitobat ul-atfol", rumuzlar, "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim", til va nutq.

Sarf, nahv, yo'g'on, ingicha, singarmonizm, bosim, kichiklangan otlar, nisbat sifati, o'rtoqlik sifati, oshirma son, sira son, ulush son, kelajak fe'llari, ko'rilgan fe'l, eshitilgan fe'l, to'ldirg'ichlar, borish, tushum, to'ldirg'ichlar, tilak gaplar, undashli gaplar, qayg'urishli gaplar, eksik gap, tugal gap, kinoya gaplar, teskari shartli gaplar, kirish so'z.

Savol va topshiriqlar:

1. O'zbek ma'rifatparvarlarining lingvistik faoliyati haqida gapiring.

¹ Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. –T., O'zbekiston, 2002, 155-bet.

2. Jadidlarning alifboni isloh qilish haqidagi fikrlari nimalardan iborat edi?
3. O'zbek adabiy tilining shakllanishi va rivojlanishida jadidlarni roli qanday edi?
4. O'zbek adabiy tilining shakllanishi va rivojlanishida "Chig'atoy gurungi" to'garagi a'zolari qanday ishlarni amalga oshirdi?
5. 20-yillarda adabiy tilni me'yorlashtirishda matbuotning roli qanday edi?
6. M. Behbudiyning "Ikki emas, to'rt til kerak" maqolasida yoshlarni nimalarni o'rganishga chaqiradi?
7. Ashurali Zohiriyning tilga oid qanday asarlar yaratdi?
8. Ashurali Zohiriy matbuot tilining me'yorlashtirish uchun nimalarga e'tibor berish kerak, deydi?
9. Ashurali Zohiriy adabiy til bilan so'zlashuv tilini qanday farqlaydi?
10. Ashurali Zohiriyning o'zbek tili fonetikasiga oid qanday maqolalari bor?
11. Ashurali Zohiriy lug'atchilik sohasida qanday xizmatlar qildi?
12. Imlo masalasida qanday fikrlarni ilgari surdi?
13. Mahmudho'ja Behbudiyning lingvistik qarashlari qaysi asarlarida berilgan?
14. "Til masalasi" maqolasida qanday masalalar haqida so'z yuritadi?
15. "Ikki emas, to'rt til kerak" maqolasini o'qib, izohlab bering.
16. Behbudiyning «Kitobat ul-atfol» asari nimaga bag'ishlangan?
17. Abdulla Avloniyning tilga oid fikrlarini aytib bering.
18. Avloniy millatning muhim belgisi bo'lgan til haqida qanday fikrlarni ilgari surdi?
19. Fitratning "Sarf" asari nimaga bag'ishlanadi?
20. Fitrat o'zbek tili fonemalarini necha guruhga bo'ladi?
21. Fitrat o'zbek tili unlilar tizimi masalasida qanday fikrda edi?
22. Tovush o'zgarishlari haqida nimalarni aytadi?
23. Fitrat so'zlarni semantik tamoyil asosida necha guruhga ajratadi?
24. Qo'shma fe'llarni necha turga bo'ladi?
25. Ikkinchi darajali bo'laklarni qanday nom bilan ataydi va ularni necha guruhga ajratadi?
26. Gapning maqsad va ma'nosiga ko'ra necha guruhga ajratadi?

8 – Mavzu: O'zbek ilmiy tilshunosligining shakllanishi va rivojlanishi

Reja:

1. Sho'rolar davrining 20-30-yillarida til falsafasi.
2. Grafika va imlo masalalari.
3. Fonetika va fonologiya.
4. O'zbek tili morfemikasining shakllanishi.
5. O'zbek tili leksikologiyasining shakllanishi va rivojlanishi.
6. O'zbek tili frazeologiyasining shakllanishi va taraqqiyoti.
7. O'zbek tili morfologiyasining shakllanishi va taraqqiyoti.
8. O'zbek tili ilmiy sintaksisining shakllanishi va ravnaqi.

Bizga ma'lumki, sho'rolar davrida barcha fanlar marksistik falsafaga asoslangan holda rivojlandi. Bunday vaziyat barcha fanlar qatorida tilshunoslikda ham hukm surdi.

XX asrning 50-yillarigacha til falsafasi ikkita o'zaro bir-biriga zid konsepsiya asosida rivojlandi. Ularning birinchisi Ye.D.Polivanov, ikkinchisi N.Ya.Marr konsepsiyasi edi.

Har ikkala guruh ham marksizm tarafdorlari edi. Ularning har ikkalasi tilshunoslikka marksistik ta'limotni olib kirmoqchi bo'ldi. Faqat ular bu ta'limotga turli tomondan yondoshadilar. Ye.D.Polivanov marksizmning lenincha ta'limotiga asoslansa, Marr va uning tarafdorlari marksizm-leninizmning stalincha talqiniga asoslangan edi. Ular bir qancha masalalar bo'yicha bir-biriga qarama-qarshi pozitsiyada edi.

1. O'tmish madaniyatiga, shu jumladan, lingvistik merosga munosabat masalasi.

Birinchi yo'nalish tarafdorlari, ya'ni Ye.D.Polivanov va uning tarafdorlari, o'tmish madaniyat yutuqlariga asoslangan holda yaratiladi, o'tmish madaniyatini o'rganmay turib yangi madaniyatni yaratib bo'lmaydi, degan g'oyani ilgari suradi.

Marr va uning tarafdorlari esa eski madaniyatga qarshi chiqib, madaniyatda vorislikka chek qo'yish kerak degan g'oyalarni ilgari suradi. Ya'ni bu g'oyani tarafdorlari eski madaniyat bilan aloqani umuman uzib boshqalarga o'xshamagan, yangi madaniyat yaratishni ilgari suradi.

2. Marr bilan Ye.D.Polivanov o'rtasidagi ikkinchi qarama-qarshilik tillarning taraqqiyoti va uning istiqboli masalasiga qanday yondoshuvida ko'rinadi.

Tilning kelib chiqishi va taraqqiyotini Marr "ko'pdan ozga" tamoyili asosida olib boradi. Ya'ni butun dunyo tillarini birlashtirishga intiladi. Kelajakda butun dunyo xalqlari uchun yagona til va butun dunyo tili maydonga keladi, degan g'oyani ilgari suradi.

Ye.D.Polivanov va uning tarafdorlari esa bunday qarashlarni yoqlamagan holda Marrning yagona dunyo tilining paydo bo'lishi haqidagi qarashlari folbinlik deb qaraydi.

3. Marrizm va Ye.D.Polivanov o'rtasidagi uchinchi farq til va tillarning kelib chiqishi masalasiga bo'lgan munosabatda ko'rinadi.

Marrning fikricha, tilning kelib chiqishiga qiziqmasdan turib hech qanday lingvistikaning bo'lishi mumkin emas. Tillarning kelib chiqishiga yofas tillar asos deb faraz qilingan yofas nazariyasini va to'rt elementini (sal, ber, yon, rosh) olg'a suradi.

Ye.D.Polivanov esa aniq lingvistik materiallarga ega bo'lmay, aniq dalillarga asoslanmay turib, tillarning kelib chiqishi haqida fikr yuritish g'ayriilmiydir, deydi.

Marrizmning tillarning kelib chiqish haqidagi, ya'ni barcha tillar negizida to'rt element yotganligi haqidagi qarashlari yigirmanchi asrning 50-yillarida tilshunoslikda olib borilgan bahslarda qoralanib, uni quruq folbinlik sifatida baholandi.

Turkiy tillar tovush tizimining boshqa tillardan, xususan, arab tilidan farq qilishi Mahmud Koshg'ariy, Alisher Navoiylar tomonidan bayon qilingan. Alisher Navoiy turk (o'zbek) tilining o'ziga xos unlilar tizimi haqida ham fikr yuritgan edi. Lekin tilshunoslikning alohida bo'limi sifatidagi fonetikaning shakllanishi XX asrning boshlariga to'g'ri keladi.

1922-yilda bo'lib o'tgan qurultoyda Fitrat til-imlo masalasida ma'ruza qiladi. O'z ma'ruzada u o'zbek tilining o'ziga xos 6 ta unlilar va 23 ta undoshlar tizimi

mavjudligini, yozuvdagi harflar ham xuddi shu fonemalarni ifodalamoq`i lozimligini bayon qiladi.

Ye.D.Polivanov esa «Maorif va o`qituvchi» jurnalining 1922 yil 1-sonida e`lon qilingan “Toshkent dialekti tovush tarkibi” nomli maqolasida Toshkent dialektida 6 ta unli va 22 ta undosh foyema borligini ko`rsatadi. Qadimgi turk va eski o`zbek tilida qator belgisi asosida zidlangan *u - u, o - o* unlilarining keyinchalik bir qator shahar shevalarida zidlanish belgisining yo`qotganligi, bu esa singarmonizmning yo`qolishiga olib kelganligini ta`kidlaydi. Ye.D.Polivanov bunday jarayonni o`zbek tilining o`z ichki taraqqiyoti natijasi emas, balki tashqi omil – eron tillari ta`siri natijasi deb tushunadi. Ye.D.Polivanov “O`zbek tili va o`zbek dialektologiyasi” asarida hozirgi o`zbek tilida turkiy tillarning 9 talik, 12 talik unlilar tizimidan, shuningdek, 9 talik eski o`zbek tili unlilar tizimidan qanday qilib oltitalik unlilar tizimi paydo bo`lganligini konvergensiya va divergensiya hodisalari asosida ilmiy jihatdan asoslab berdi. Toshkent dialektidan boshqa barcha o`zbek shevalarida 8-9 talik unlilar tizimi amal qilib kelayotganligi, bu esa singormanizm qonuniyatining palatal garmoniyasi ta`siri ekanligi, 6 talik unlilar tizimi esa ana shu singarmonizm qonuniyatidan xalos bo`lishning natijasi ekanligini bayon qiladi.

1940-yillarning oxiridan boshlab hozirgi o`zbek adabiy tilining izchil kursini yaratishga harakat boshlandi. Mulliflar guruhi belgilanib, tadqiqot natijalari alohida-alohida risolalar sifatida e`lon qilina boshlandi. Unda o`zbek tilshunoslik tarixida ilk marta o`zbek tili fonetikasi o`zbek tilshunosligining tarkibiy bir qismi sifatida izchil bayon qilindi.

1947 yilda A.G`ulomovning “O`zbek tilida urg`u” risolasining nashr etilishi bilan o`zbek tili ustegment birliklarining o`rganilish tarixi boshlandi. Unda urg`uning so`z va mantiq urg`ulariga bo`linishi, so`z urg`usining o`zbek tilidagi vazifalari izohlab berildi.

1953 yilda V.Reshetov va Sh.Shoabdurahmonovning “Fonetika. O`zbek tili fonetikasiga doir ba`zi masalalar” risolasi bosildi. O`zbek tilshunosligida fonema atamasi ilmiy istifodaga olib kirildi va uning mohiyati tushuntirildi.

A.G`ulomovning “O`zbek tilida tarixiy so`z yasalishi. Ot” (M., 1955) nomli doktorlik dissertatsiyasida ham morfemalar oralig`ida ro`y beradigan turli fonetik o`zgarishlar haqida so`z yasalishiga bog`liq ravishda ma`lumot beriladi.

1970 yilda A.M.Shcherbak tomonidan “Turkiy tillarning qiyosiy fonetikasi” nomli kitobi nashr etiladi. Mazkur kitobda muallif turkiy tillar fonologik tizimi fonologik oppozitsiyalar asosida o`rgandi. O`zbek tilining fonologik oppozitsiyalari haqida ham ma`lumot berdi. Bu bilan o`zbek tili fonologiyasining shakllanishi uchun zamin yaratdi.

1974 yilda A.A.Abduazizov tomonidan ingliz va o`zbek tillari materiallari asosida “Fonologik sistemalar tipologiyasi” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasining dunyoga kelishi o`zbek tili fonologiyasining shakllanishi va rivoji uchun katta ahamiyatga ega bo`ldi.

1980 yilda A.Nurmonovning “O`zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi” hamda 1984 yilda A.A.Abduazizovning xuddi shu nomda “O`qituvchi” nashriyotida chop etilgan asarlarining maydonga kelishi o`zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasining ta`lim jarayoniga tatbiq etilishida katta voqea bo`ldi.

Mazkur asarlarda o'zbek tilshunosligi tarixida ilk bor morfonologiya maqomi belgilandi va uni o'rganish ob'ekti aniqlandi.

1999 yilda M.Mirtojiyev tomonidan yozilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili. Fonetika» kitobida shu kunga qadar nutq apparati haqidagi mavjud bo'lgan tushunchalarga bir qator oydinliklar kiritildi.

Shunday qilib, hozirgi kunda o'zbek tilshunosligida fonetik sathni ikki asosda o'rganish an'anaga aylandi: 1) tavsifiy asosida-fonetika: 2) sistemaviy asosda-fonologiya. Har ikki jihat bir-biridan oziqlanib, tobora rivojlanib bormoqda.

A.G`ulomov o'zbek tilshunosligi tarixida ilk bor Boduen de Kurtene tomonidan eng kichik ma'noli birlikni ifodalash uchun qo'llangan morfema atamasini olib kirdi. A.G`ulomov so'zning yasash tuzilishi bilan morfemik tuzilishini bir-biridan farqladi. Muallifning ta'kidlashicha, so'zning morfematik tahlilida uning morfemalari aniqlansa (*o'qi-tuv-chi-lik*), so'z yasash tahlilida so'z yasalma sifatida doimo ikki qismga – *yasovchi o'zak* yoki *yasovchi negiz*, *yasovchi affiksga* ajraladi. A.G`ulomovning so'zning yasash va morfemik tarkibi, morfema turlari haqidagi fqikrlari 1977 yilda nashr etilgan "O'zbek tili morfem lug'ati" kitobining kirish qismida yanada batafsilroq berildi.

O'zbek tilshunosligida 70-yillardan boshlab morfemika tilshunoslikning alohida bo'limi sifatida ajratila boshlandi.

Morfemika tilshunoslikning alohida bo'limi sifatida e'tirof etilgandan buyon ham uning o'rganish predmeti yuzasidan turli xil fikrlar yuritildi. 1992 yilda Yo.Tojiyevning «O'zbek tili morfemikasi» nomli qo'llanmasini yaratildi. O'zbek tili morfemikasining shakllanishi va uning o'rganish ob'ektining to'g'ri belgilashda A.Hojiyevning xizmati katta bo'ldi. A.Hojiyev morfemikaning o'rganish ob'ekti haqida fikr yuritir ekan, quyidagilarni yozadi: "Morfemika so'zning necha morfemadan tashkil topishini o'rganmaydi, balki morfemalarning turini, har bir turga xos xususiyatlarni o'rganadi"¹.

O'zbek tili morfemalarining xuddi boshqa sath birliklari kabi sath hosil qilish xususiyatini, ularni paradigmatic va sintagmatic munosabatlarini yoritishda T.Mirzaqulovning tadqiqotlarini alohida ta'kidlash joiz².

O'zbek tili leksikasining shakllanishida Faxri Kamolning «Hozirgi zamon o'zbek tili kursidan materiallar» rukni ostida chop etilgan "O'zbek tili leksikasi va Ya.D.Pinxasovning "Hozirgi o'zbek tili leksikasi" risolalari, 1957 yilda nashr etilgan "Hozirgi zamon o'zbek tili" asari katta ahamiyatga ega.

O'zbek tili leksikologiyasida ilk bor leksik dubletlar haqida ma'lumot berildi. Keyinchalik M.Mirtojiyev, I.Qo'chqartoyev, A.Hojiyev, B.Isabekov, R.Shukurovlarning leksik omonim, sinonim, antonimlar tadqiqiga bag'ishlangan maxsus asarlari maydonga keldi.

So'zlarning ko'chma ma'no turlari, ularning hosil bo'lish yo'llari xususida M.Mirtojiyev "O'zbek tilida polisemiya", I.Shukurov "O'zbek tilida troplar" asarlarida so'z yuritdi.

O'zbek tili leksikologiyasi bo'yicha erishilgan yutuqlar sintezi sifatida "O'zbek tili leksikologiya" kitobi (1991) maydonga keldi.

¹ Hojiyev A. So'zning morfologik va so'z yasash strukturasi. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali, 1976-yil, 3-son, 31-bet.

70 - 80-yillardan boshlab o'zbek tilshunosligiga sistemaviy-struktur tilshunoslik qo'lga kiritgan yutuqlar, uning tadqiq etish metodlari kirib keldi.

U.Tursunov, J.Muxtorov, Sh.Rahmatullayev tomonidan yozilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" kitobining leksikologiya qismi o'zbek tavsifiy leksikologiyasidan sistemaviy leksikologiyaga o'tish davri, leksikologiyaning bu ikki yo'nalishi o'rtasidagi ko'prik sanaladi. Chunki unda tavsifiy leksikologiya an'analari davom ettirilgan va takomillashtirilgan bo'lishi bilan birga, sistemaviy leksikologiyaning asosiy belgilardan bo'lgan uzviy tahlil uslubi joriy etildi.

O'zbek leksikologiyasining yuqori bosqichga ko'tarilishida jahon sistemaviy-struktur tilshunosligining eng yaxshi jihatlarini o'zida mujassamlashtirgan va o'zbek tilshunoslari erishgan yutuqlarni sintezlashtirgan "O'zbek tili sistemaviy leksikologiyasi asoslari"¹ kitobining yuzaga kelishi katta voqea bo'ldi. Asarda sistemaviy tilshunoslikning asosiy tushunchalarini izchil bayon qilib berish, lingvistik oppozitsiyalar va ularning leksik sathda namoyon bo'lishi, leksemaning boshqa til birliklari tizimida tutgan o'rni, uning shakl va mazmun munosabatidan tashkil topgan butunlik ekanligi bayon qilinadi.

Frazeologiya tilshunoslikning yangi bo'limi sifatida XX asrning 50-yillaridan boshlab mustaqil bo'lim sifatida ajralib chiqdi.

O'zbek frazeologiyasining shakllanishida Sh.Rahmatullayev, Ya.D.Pinxasov, M.Xusainovlarning xizmati katta bo'ldi.

O'zbek tilshunosligi leksikografiya sohasida juda katta tarixga ega. Lekin o'rta asr leksikografiyasida ko'proq e'tibor izohli va tarjima lug'atlarga qaratilgan.

XX asrning 40-yillaridan boshlab leksikografiya yo'nalishlari ham kengaydi. Xususan, A.Yu.Yunusovning «Fiziologik terminlarning izohli lug'ati» (1984), A.Hojiyevning "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati" (1974), Sh.Rahmatullayevning "O'zbek tili sinonimlarining izohli frazeologik lug'ati" (1978), "O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati" (1984), shu muallifning R.Shukurov bilan hamkorlikda tayyorlagan "O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati" kabi lug'atlar xususiy izohli lug'atlar sanaladi.

O'zbek tilining barcha leksemalarini izohlashga bag'ishlangan lug'at esa umumiy izohli lug'at hisoblanadi. 60 ming so'zni o'z ichiga olgan ikki jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati" (1981) o'zbek leksikografiyasi tarixida o'zbek tilining barcha leksemalarini izohlashga qaratilgan ilk izohli lug'atdir.

16 ming so'zni o'z ichiga olgan "O'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati"ning nashr etilishi (2001) ham bu yo'lda qilingan harakatlarning debochasi bo'ldi. Sh.Rahmatullayev tomonidan "O'zbek tilining etimologik lug'ati" (2000)ning nashr qilinishi o'zbek leksikografiyasini yuqori cho'qqiga ko'tardi.

Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida, Alisher Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida ham, Muhammad Chingiyning "Kelurnoma", Fitratning "Sarf" asarlarida ham so'z yasaliishiga doir fikrlar bayon qilingan.

XX asrning 30 - 40-yillarida fe'l va ot yasaliishiga bag'ishlangan maxsus asarlar dunyoga keldi. Lekin so'z yasaliishi alohida hodisa sifatida va bu hodisani o'rganuvchi «So'z yasaliishi» tilshunoslik fanining alohida bo'limi sifatida ilk bor A.G`ulomov tadqiqotlari asosida XX asrning 40-yillarida shakllandi.

¹ Ne`matov H. Rasulov R. O'zbek tili sistemaviy leksikologiyasi asoslari.. T., O'qituvchi, 1995.

A.Hojiyev ham soʻz yasalihi boʻyicha qator ishlar qildi. Xususan, u soʻzning morfemik va morfologik tuzilishi boʻyicha yoʻl qoʻyilgan noaniqliklarga barham berdi. A.Hojiyev soʻzning morfemik tuzilish deganda, uning necha maʼnoli qismlardan - morfemalardan iborat ekanligini, soʻzning morfologik tuzilishi deganda esa, uning forma yasashga asos boʻlgan va forma yasovchi qismini, yaʼni ikki qismni nazarda tutish lozimligini taʼkidlaydi. Bu jihatdan A.Hojiyev soʻzning morfologik tuzilishi bilan soʻz yasalihi tuzilishi oʻrtasida qandaydir yaqinlikni koʻrsatdi.

Oʻzbek tilining fonetikasi, morfologiyasi va sintaksisini alohida-alohida boʻlimlar sifatida izchil ravishda dastlab Fitrat oʻrgandi va oʻzbek tilshunosligi tarixida “Sarf” va ”Nahv” asarlari bilan oʻzbek tili grammatikasiga asos soldi.

Oʻzbek tilshunosligi tarixiga morfologiya va sintaksis atamalarini O.Usmonov va B.Azizovlar olib kirdi.

Lekin bu asarlar maktab oʻquvchilari uchun yozilgan darslik boʻlib, lingvistik hodisalarni chuqur ilmiy tahlil qilishni oʻz oldiga maqsad qilib qoʻymagan edi.

Oʻzbek tili grammatik qurilishini chuqur ilmiy tadqiq qilish 40-yillardan boshlandi. A.Gʻulomov oʻzbek morfologiyasiga doir bir qator asarlar yozdi. Shu bilan birga, Ulugʻ Tursunovning koʻmakchilar, H.Komilovning kelishiklar, Z.Maʼrupovning ot va sifat yuzasidan olib borgan tadqiqotlari oʻzbek ilmiy grammatikasining yaratilishidagi dastlabki harakatlardan boʻldi.

50-yillarda “Hozirgi zamon oʻzbek tili kursidan materiallar” rukni ostida oʻzbek tilining barcha sathlari boʻyicha bir nechta risolalar yaratildi. Xususan, A.Gʻulomovning “Oʻzbek tilining morfologiyasiga kirish” (1953), “Feʼl” (1954), S.Usmonovning «Oʻzbek tilida undovlar» (1953), H.Komilovning «Oʻzbek tilida son va olmosh” (1953), M.Asqarova, R.Jumaniyozovlarning «Oʻzbek tilida ravishdosh va sifatdosh” (1953), S.Fuzailovning «Oʻzbek tilia ravishlar” (1953), Sh.Shoabdurahmonovning «Oʻzbek tilida yordamchi soʻzlar” (1953) singari asarlari yaratildi.

A.Hojiyevning “Feʼl”, “Qoʻshma, juft, takroriy soʻzlar” (1963), “Oʻzbek tilida koʻmakchi feʼllar” (1966),”Toʻliqsiz feʼllar” (1970) singari monografiyalari yaratildi. “Hozirgi zamon oʻzbek tili. Fonetika, Grafika, Orfografiya, Orfoepiya, Leksikologiya, Morfologiya” kitobi yaratilgandan soʻng oʻzbek tili morfologiyasiga doir yangi tadqiqotlarni eʼtiborga olgan holda ikki jildli “Hozirgi oʻzbek adabiy tili” (T., “Fan”, 1966), “Oʻzbek tili grammatikasii, 1 tom, Morfologiya (T., “Fan”, 1975), II tom, Sintaksis (T., 1976) asarlarining maydonga kelishi esa, oʻzbek tili grammatikasining takomillashuvida katta rol oʻynadi.

Oʻzbek tili sintaksisi tilshunoslikning alohida boʻlimi sifatida ilk bor Fitrat tomonidan «Nahv” atamasi ostida oʻrganildi.

Oʻzbek tilshunosligida birinchi marotaba sintaksis nomi ostida O.Usmonov va B.Azizovlar maktab grammatikasini nashr etdilar (1939).

Oʻzbek tili sintaktik birliklarini ilmiy asosda atroflicha oʻrganish XX asarning 40-yillaridan boshlandi. Sintaktik sath birliklarini Ovrupo tilshunosligining yutuqlari asosida chuqur oʻrganish ham A.Gʻulomov nomi bilan bogʻliqdir.

U «Oʻzbek tilida aniqlovchilar” mavzusidagi nomzodlik nomzodlik dissertatsiyasi hamda bu dissertatsiya asosida maydonga kelgan xuddi shu nomdagi

risolasi (T., 1942), “O‘zbek tilida so‘z tartibi” (T., 1947), “Sodda gap” (T., 1948-1955) singari risolalari bilan o‘zbek ilmiy sintaksisining paydevorini yaratdi.

Sodda gap sintaksisi haqidagi ta‘limotning rivojlanishida A.Komilovning “Gapda so‘zlarning bog‘lanishi” (T., 1955), G‘.Abdurahmonovning “Gapning ajratilgan ikkinchi darajali bo‘laklari” (T.,1956), H.Boltaboyevaning shu nomdagi risolalari (Farg‘ona, 1957), D.Ashurovaning “Gapning uyushgan bo‘laklari” (T., 1962), A.Sayfullayevning undalmalarga, kirish va kiritmalarga bag‘ishlangan tadqiqotlari, F.Ubayevaning “Hol” asari, A.Ahmedovning “So‘roq gaplar” (1965), A.Safayevning bosh va ikkinchi darajali bo‘laklar, I.Rasulovning bir sostavli gaplar, B.O‘rinboyevning atov gaplar, so‘zlashuv nutqi sintaksisi tadqiqiga qaratilgan asarlari katta xizmat qildi.

1974 yilda I.Rasulovning “Hozirgi o‘zbek adabiy tilida bir sostavli gaplar” nomli monografiyasi nashr etildi.

“Gap haqida sintaktik nazariyalar” kitobining nashr etilishi (T., 1988), gapda ikki cho‘qqili (ikkita bosh bo‘lakni e‘tirof etuvchilar) nazariyaning kelib chiqish ildizlari, gapni bo‘laklarga ajratish tamoyillari va unda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni ko‘rsatib berishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Unda turkiy tillar sintaktik tuzilishida eng muhim konstruktiv bo‘lak kesim ekanligi, shuning uchun ham turkiy tillar uchun bir cho‘qqili nazariya muvofiq ekanligi, gap bo‘laklarini gapning ana shu mazmuniy va grammatik markazi bo‘lgan kesim bilan munosabatiga qarab belgilash lozimligi ta‘kidlandi. Ayni paytda gap bo‘laklari ikki darajaga emas, bir necha darajalarga bo‘linishi mumkinligi ko‘rsatildi.

O‘zbek tili sodda gap sintaksisining takomillashuvida B.O‘rinboyevning “Hozirgi o‘zbek adabiy tilida vokativ kategoriya” (T., 1972), N.Mahmudovning “O‘zbek tilidagi sodda gaplarda mazmun va shakl assimetriyasi” (T., 1984) monografiyalari katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu asarlar o‘zbek tili sintaksisini yangicha qarashlar, yangi yo‘nalishlar bilan boyitdi.

O‘zbek tili sodda gap sintaksisining shakllanishi va taraqqiyotida A.G‘ulomov xizmati qanchalik katta bo‘lsa, qo‘shma gap sintaksisining shakllanishi va taraqqiyotida G‘.Abdurahmonov va M.Asqarovalarning xizmati kattadir.

O‘zbek tilining qo‘shma gaplarga doir ilk asar H.G‘oziyevga mansubdir. U 1941 yilda “Hozirgi zamon o‘zbek tilida ergashgan qo‘shma gaplarning sostavi” nomli asari bilan o‘zbek tilshunosligida qo‘shma gap sintaksisini o‘rganishni boshlab berdi. 1955 yilda Fahri Kamol “Qo‘shma gaplarga doir masalalar” kitobini nashr etdi va unda qo‘shma gaplarning maqomi, ularning tasnifi haqida dastlabki ma‘lumotlar berdi.

G‘.Abdurahmonov “Qo‘shma gap” (T., 1957), “Qo‘shma gap sintaksisi asoslari” (T., 1958), “Qo‘shma gap sintaksisi” (T., 1964), M.Asqarova “Hozirgi zamon o‘zbek tilida qo‘shma gaplar” (T., 1960) singari kitoblarini nashr etib, o‘zbek tili qo‘shma gap sintaksisining ilmiy asoslarini yaratib berdilar.

O‘zbek tili qo‘shma gaplar sintaksisining takomillashuvida A.Berdaliyev, N.Turniyozovlarning ham xizmatlarini ta‘kidlash joiz.

70 - 80-yillarda jahon tilshunosligida matn lingvistikasining rivojlanishi o‘zbek tilshunosligiga ham ta‘sir etdi va o‘zbek tilshunosligida ham A.Mamajonov, M.To‘hsonovlarning matn lingvistikasiga va matnning uslubiy xususiyatlariga

bag`ishlangan monografik tadqiqotlari vujudga keldi. Shunday qilib, o`zbek sintaktik ta`limotining shakllanishi va rivojlanishida A.G`ulomov, G`.Abdurahmonov va M.Asqarovalar katta xizmat qildilar.

A.Nurmonov, N.Mahmudov, A.Berdialiyevlar o`zbek tili sintaksisiga sistemaviy-struktur usulni olib kirdilar.

Turkiy tillarda gapning mazmuniy va konstruktiv markazi kesim ekanligini, gapning egasi ham kesim orqali belgilanishi va unga tobe ekanligini, gap bo`laklarini gapni gap qilib turishdagi zaruriy va fakultativlik belgisiga ko`ra bir necha darajalarga bo`lish mumkinligini ko`rsatib berdilar¹.

O`zbek tilining ichki tuzilish xususiyatini o`rganish bilan birga, 50-yillardan boshlab uning uslubiyotini o`rganishga ham e`tibor qartila boshlandi. Bunday harakatning boshlanishida A.G`ulomov va Sh.Shoabdurahmonovlar turdi. A.G`ulomov 1941 yilda nashr etgan “O`zbek tilida kelishiklar” asarida xalq dostonlarida kelishiklarning qo`llanishidagi o`ziga xos xususiyatlarga keng to`xtalgan bo`lsa, Sh.Shoabdurahmonovning “Ravshan” dostonining tili va uslubi” (1949) mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi ayna shu muammoga bag`ishlangan ilk monografiya sanaladi. Shundan beri o`zbek tilining turli funksional uslublarining monografiya tadqiqiga bag`ishlangan o`nlab asarlar maydonga keldi. Ular ichida I.Qo`chqartoyevning “Badiiy nutq stilistikasi” (1975), A.Shomaqsudov, I.Rasulov, R.Qo`ng`urov, H.Rustamovlarning “O`zbek tili stilistikasi”, R.Qo`ng`urovning “O`zbek tili stilistikasidan ocherklar” (1982), A.Shomaqsudovning “O`zbek adabiy tili stillari haqida” (1970), “O`zbek tili stilistikasi” (1974), B.O`rinboyevning “O`zbek tili so`zlashuvi nutqi sintaksisi masalalari” (1974), “So`zlashuv nutqi” (1982), A.Mamajonovning qo`shma gap stilistikasiga bag`ishlangan bir qancha asarlari, M.Rahmonovning “Turkiston viloyati gazetasi tili sintaktik xususiyati” (1971), B.Turdialiyevning gazeta tili morfologik xususiyatlariga, B.Yo`ldoshev, S.Karimovning badiiy uslub, B.Umrqulovning publitsistik uslubga, Yo.Tojiyevning affikslar uslubiyotiga bag`ishlangan tadqiqotlar o`zbek tili stilistikasining rivojlanishiga olib keldi.

O`zbek tili uslubiyoti negizida nutq madaniyati shakllandi. O`zbek nutq madaniyatining shakllanishida E.Begmatovning xizmatlarini alohida ta`kidlash lozim. Uning rahbarligida yozilgan «O`zbek nutq madaniyati ocherklari” (1988) kitobida nutq madaniyati kursining o`rganish ob`ekti, mundarijasi, maqsad va vazifalari nazariy jihatdan asoslab berildi.

Tayanch tushunchalar:

Til-imlo masalasi, turkiy tillarning qiyosiy fonetikapsi, fonetika, fonologiya, fonema, morfema, morfologiya, morfonologiya, leksikologiya, ibora, leksikografiya, so`z yasaliish tamoyillari, ideoma, sintaksis, uslubshunoslik, nutq madaniyati.

Savol va topshiriqlar:

1. 1950 yillarda til falsafasida ikkita o`zaro zid konsepsiya mavjud edi. Mazkur konsepsiya nimalardan iborat?

¹ Nurmonov A. Gap haqida sintaktik nazariyalar. T., 1988.

2. Ye.D.Polivanov va N.Ya.Marrning o'zaro bir-biriga zid qarashlarini aytib bering.
3. XX asrda grafika va imlo masalasi bo'yicha qanday ishlar qilindi?
4. O'zbek tilshunosligida fonetika va fonologiya sathlari bo'yicha qanday yutuqlarga erishildi?
5. "Morfema» atamasini o'zbek tilshunosligiga qaysi tilshunos olim olib kirdi?
6. 1991 yilgacha o'zbek tilshunosligida leksikologiya sohasi bo'yicha qanday ishlar qilindi?
7. Fitratning 1930 yilda nashr ettirgan asarida qanday masalalar yoritilgan?
8. A.G'ulomov "O'zbek tilida urg'u" risolasida qanday atamalarni tilshunoslikka olib kirdi?
9. Tilshunos M.Asqarova o'zbek tilining sintaksisi bo'yicha qanday ishlarni amalga oshirdi?
10. Sodda gap sintaksis haqida gapiring.
11. So'z yasalishi bo'yicha qanday asarlar yaratildi? "O'TA" VA "TAT" jurnallaridan so'z yasalishiga oid maqolalarni o'qib, izohlab bering.
12. Diaxron tilshunoslik deganda nimani tushunasiz?
13. Uslubshunoslik va nutq madaniyati bo'yicha qanday asarlar? yaratildi?
14. O'zbek dialektologiya bo'yicha qanday tadqiqotlar amalga oshirildi?

9- mavzu: **Mustaqillik davri o'zbek tilshunosligi**

Reja:

1. Davlat tili haqidagi qonun va uning tarixiy ahamiyati.
2. Mustaqillik yillarida o'zbek tilshunosligi erishgan yutuqlari.

XX asrning 90-yillaridan boshlab milliy an'analarni, milliy madaniyatni tiklash, milliy til obro'-e'tiborini kuchaytirish muammolari ko'tarila boshlandi.

1989 yilning 21 oktabrida o'zbek tilining O'zbekiston Respublikasi Davlat tili sifatida rasmiy e'lon qilinishi o'sha davr uchun katta tarixiy voqea bo'ldi. Ana shu Qonunning chiqishi tilimizning rus tili ta'siri doirasida siqilib, faqat ko'cha-ko'yda va oilada foydalaniladigan ikkinchi darajali bir tilga aylanib qolish xavfiga chek qo'ydi.

O'zbek tili oliy darajadagi davlat anjumanlarida qo'llanadigan, davlatning rasmiy hujjatlari yuritiladigan, rivojlanish istiqboli qonun bilan belgilangan tilga aylandi.

Mustaqillikdan so'ng mavjud Qonunni isloh qilish zaruriyati tug'ildi. 1995 yil 21 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasi "Davlat tili haqida"gi Qonunning yangi tahririni qabul qildi.

Yangi tahrirdagi Qonunning ahamiyati shundaki, bunda o'zbek tilining bugungi jahon hamjamiyatidagi o'rnini hisobga olindi. Qonunning 23-moddasida O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnoma matnlari davlat tilida yozilishi ta'kidlandi. Bu modda o'zbek tilining jahon miqyosida rasmiy davlat tili sifatida nufuzining ko'tarilishini ta'minladi.

O'zbek tili O'zbekiston Respublikasining davlat tili sifatida tan olinar ekan, bu respublika hududida boshqa tillarning faoliyat ko'tarishiga, rivojlanishiga, O'zbekistonda yashovchi barcha millatlarva elatlarning o'z ona tillarida aloqa qilishlariga monelik qilmasligi (2-modda), ularning tillarida maktab-maorif va madaniy muassasalar (5-modda), noshirlik, pochta-telegraf, notarial idoralar, televideniye va radio eshittirishlar faoliyat ko'rsatishlari kafolatlangan. Boshqa millat va elatlarning tillariga hurmat bilan munosabatda bo'lish, bu tillarni rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratish (4-modda) ta'kidlanadi.

Dalat tili haqidagi Qonun qabul qilinayotgan paytda vaqtli matbuotda bir qator baynalminal atamalarni tilimizdan chiqarish, uni arab yoki fors-tojik tilidagi muqobili bilan almashtirish tendensiyasi kuchaydi. Masalan, *radio* o'rniga *ovoynigor*, *samolyot* o'rniga *tayyora*, *institut* o'rniga *oliygo*, *rayon* o'rniga *nohiya* va boshqalar. Atamalarni almashtirish shu darajaga yetdiki, hatto mutaxassislarining o'zlari ham yangi qo'llanilayotgan atamalarni qaysi tushuncha uchun ishlatilayotganligini izohlashga qiynalib qoldi¹.

Ana shunday sharoitda atamalarni tartibga solish ehtiyoji tug'ildi. Shuning uchun Vazirlar Mahkamasi qoshida atamashunoslik qo'mitasi tuzildi. Yangi tavsiya etilayotgan atamalar atamaqo'm tasdig'idan o'tgandan so'nggina hayotga yo'llanma oladigan bo'ldi. O'zbek tilining yangi atamalar bilan boyib borish yo'li yangi tahrirdagi Qonunda aniq ifodasini topdi. 7-moddasida yangi atamalar jamoatchilik muhokamasidan o'tgandan keyin va Oliy Majlisning tegishli qo'mitasining roziligi bilan o'zbek tiliga joriy etilishi belgilandi.

Yangi tahrirdagi Qonunirng yana bir muhim tomoni shundaki, moddalar soni qisqartirilgan. Oldingisi 30 moddadan iborat bo'lgan bo'lsa, yangi tahrirdagi Qonunda ayrim o'z kuchini yo'qotgan moddalar chiqarib tashlangan.

Yangi tahrirdagi Qonunning 9-moddasida davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ish davlat tilida yuritilishi ta'kidlanadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining oliy darajadagi anjumanlari davlat tilida olib borilyapti.

Mustaqillik sharofati bilan mamlakatimizda tub burilish davri boshlandi. Ajdodlarimiz qoldirgan boy madaniy merosga mehr-muhabbat bilan yondoshish, ularni jahon madaniyatiga qo'shgan hissalarini xolisona baholash imkoni tug'ildi. Shunday sharoitda tilshunoslik fanida ham tilimizning o'ziga xos xususiyatlarini chuqur va ob'ektiv yoritish, sorbiq sho'rolar davrida fan metodologiyasiga aylangan va ob'ektga bir tomonlama yondashuvchi marksistik ta'limot zanjiridan qutulish va olamni bilishga bag'ishlangan dunyoning eng yaxshi falsafiy ta'limotlaridan, birinchi navbatda, Sharq falsafiy ta'limotidan foydalanish harakati boshlandi.

Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlaboq tilning burcha sath birliklarini sistemaviylik tamoyillari asosida qayta o'rganib chiqish harakati boshlandi.

O'zbek tili fonologik tizimini lingvistik zidlanishlar asosida o'rganuvchi va fonemalarni farqlovchi (differensial) va birlashtiruvchi (integral) belgilar majmuasi sifatida e'tirof etuvchi A.Nurmonovning "O'zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi" (T.,1992), A.Azizovning "O'zbek tilining fonologiyasi va morfonologiyasi" (T., 1994) asarlari maydonga keldi. Bu asarlarda imkoniyat, mohiyat, invariant sanaluvchi fonema bilan uning bevosita nutq jarayonida variantlar

¹ Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. –T., O'zbekiston, 2002.218-bet.

orqali namoyon bo'lishi o'rtasidagi munosabat, ya'ni invariant va variant munosabati izchil ravishda e'tiborga oldindi.

Leksikologiya sohasida ham bir qator yutuqlar qo'lga kiritildi. Chunonchi, E.Begmatovning "O'zbek ismlari", H.Ne'matov., R.Rasulovlarning "O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari" kitobining nashr etilishi o'zbek tilshunoslikda emas, balki turkiyshunoslikda ham katta voqea bo'ldi.

O'zbek tili morfologiyasiga ham sistemaviylik tamoyillari dadil olib kirildi. Grammatik shakl va grammatik kategoriyalar o'rtasida munosabat, grammatik shaklning o'ziga xos ifodalanish yo'llari, grammatik kategoriyalarning til tizimidagi o'rni kabi masalalar jahon tilshunosligi qo'lga kiritgan yutuqlar asosida o'rganila boshlandi.

J.Eltazarovning "So'z turkumlari haqidagi nazariyalar" (1996), Sh.Shahobiddinovaning "O'zbek tili morfologiyasi umumiylik-xususiylik dialektikasi talqinida" (2000), mualliflar guruhining "O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya" (2001) asarlari yaratildi.

O'zbek tili sintaksisini sistemaviy o'rganishga jiddiy e'tibor berildi. Jumladan, N.Mahmudov va A.Nurmonovlarning "O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi" (T., 1992), "O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Sintaksis" (T.,1995), S.Mahammatqulovning "O'zbek tilida predikativ sintagma transformatsiyasi" (T.,1998) yaratildi.

Mustaqillik sharoitida o'zbek tilining qo'llanilish doirasi g'oyat kengaydi. Ijtimoiy munosabatlarda davlat tili imkoniyatlarining oshib borayotganligini ochib beruvchi N.Mahmudovning "Til va jamiyat", "Til", "So'zimiz va o'zimiz", "Ma'rifat manzillari" kabi qator kitoblarining nashr etilishi o'zbek sotsiolingvistikasini yangi pog'onaga olib chiqdi.

Mustaqillik davrida rasmiy ish uslubining shakllanishi va rivojlanishiga ham alohida ahamiyat berildi. N.Mahmudov, N.Mahkamov, A.Madvaliyevlar tomonidan "O'zbek tilida ish yuritish" kitobining nashr etilishi bu muammoning ijobiy hal etilishida katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Tayanch tushunchalar:

Davlat tili, fonetika, leksikologiya, morfologiya, sintaksis, sistemaviylik tamoyili, formal-semantik, formal-funksional, shakl va mazmun, sotsiolingvistika, rasmiy ish uslubi.

Savol va topshiriqlar:

1. Davlat tili haqidagi Qonun va uning tarixiy ahamiyati nimalardan iborat?
2. Davlat tili haqidagi Qonunning 4-moddasida nimalar haqida so'z yuritiladi.
3. Atamashunoslik qo'mitasining vazifalari nimalardan iborat?
4. Mustaqillik davrida o'zbek tilshunosli qanday yutuqlarga erishdi? Tilning har bir sathi bo'yicha alohida-alohida to'xtalib, izohlab bering.
6. O'zbek tilshunosligida umumiylik-xususiylik dialektikasi haqida qanday fikrlar mavjud? Har bir muallifning fikrlarini alohida-alohida izohlab bering.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abu Ali ibn Sino. Fonetika haqida risola. –T., “O’zbekiston”, 1979. Nashrga tayyorlovchilar: A.Mahmudov, Q.Mahmudov.
2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. –T., Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
3. Abu Rayxon Beruniy. Izbrannie proizvedeniya. Tom 1, -T., 1974.
4. Abul Qosim az-Zamahshariy. Nozik iboralar. –T., “Fan”, 1992.
5. Abulg`oziy Bahodirxon. Shajarayi tarokima. –T., “Fan”, 1992.
6. Abulg`oziy Bahodirxon. Shajaryi turk. – T., Cho’lpon, 1992.
7. Aliyev A., Sodiqov Q. O’zbek tili tarixi. Toshkent, O’zbekiston, 1994.
8. Baskakov N.A. Tyurkskix yazыki. M., 1960.
9. Baskakov N.A. Vvedeniye v izucheniye tyurkskix yazikov. M., Vishaya shkole. 1969.
10. Baskakov N.A., Sodiqov A.S., Abduazimov N.A. Umumiy tilshunoslik. Toshkent, O’qituvchi, 1979.
11. Borokov A.K. Badoi al-lug`at. Slovar Toli Imoni geratskogo k socheneniyam. Alisher Navoi. M., 1961
12. Devonu lug`atit turk. I, II, III tomlar. Toshkent, Fan, 1992.
13. Drevnetyurkskix slovar. L., 1969.
14. Kononov A.N. Istoriya izucheniya tyurkskix yazыkov v Rossii. L., Nauka, 1982.
15. Muxtarov A., Sanaqulov U. O’zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, O’qituvchi, 1995.
16. Muhammad Yakub Chingi. Kelur-name. Toshkent, Fan, 1982.
17. Nurmonov A. O’zbek tilshunosligi tarixi. Toshkent, O’zbekiston, 2002.
18. Nozik iboralar (muallifi va tarj. U.Uvatov) Toshkent, Kamalak, 1992.
19. Umarov E. Eski o’zbek tili lug`atlari. T., Fan, 1992.
20. Rustamov A. Mahmud Zamahshariy. T.Fan. 1971.
21. Serebrennikov B.A. Sistema vremen tatarskogo glagola. Kazan, 1963.
22. Sevrtyan E.V. Etimologicheskiy slovar tyurkskix yazыkov. I. II tom. Toshkent 1974, 1978.
23. Sherbak A.M Grammatika starouzbekskogo yazыka. M., L., 1962.
24. To’ychiboyev B. O’zbek tilining taraqqiyoti bosqichlari. Toshkent, 1996.
25. Sherbak. A.M. Grammaticheskiy ocherk yazыka tyurkskix tekstov X-XIII vv. Izd. Vostochkogo Turkestana. M., L., 1961.
26. Qoriyev U. Zamahshariy tilshunos va shoir. “Xorazmlik buyuk alloma” to’plami. -T.: Fan, 1998, 68-bet.